

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Mustaqillik davri she'riyatida Vatanning kuylanishi.

Bajaruvchi: Shukurov G'

NAVOIY-2015

MUNDARIJA.

KIRISH	3
I bob. Mustaqillik davri she'riyatida Vatanning kuylanishi.....	8
1.1. Vatanparvar shoir siymosiga chizgilar	11
1.2. Yetakchi ustoz shoirlarimizning ijodida Vatanga muhabbatning ifodasi.....	23
II bob. Muhammad Yusuf she'riyatida Vatan mavzusining	33
yangicha talqini.....	33
2.1 Shoir she'rlarida Vatan timsoli.....	36
2.2 Shoir she'riyatining yosh avlodda Vatanparvarlik hissini shakllantirishdagi ahamiyati.	45
XULOSA	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi o‘zbek adabiyoti xususan she‘riyati jamiyatimizning ma‘naviy ma‘rifiy jihatdan yuksalishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda, uning jahon adabiyoti silsilasidagi o‘rni ham o‘ziga xos va betakrordir. Xalqimiz o‘ziga xos boy ma‘daniy va ma‘rifiy tarixga ega, xususan o‘zbek adabiyoti.

Adabiyotga komil inson tarbiyachisi sifatida qarab kelingan, chunki adabiyot inson ma‘naviyatini shakllantiradigan asosiy vositadir. Zero, prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: “Biz ma‘naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘rishidan, xalqning ma‘naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”.¹

Bu jarayon adabiyotimizning yirik namoyondalari yaratgan ijodiy an‘analarning bugungi kunda o‘ziga xos shakllarda davom etayotganida ko‘rinadi. Ana shu ijodiy tajribalar qanday o‘zlashtiriladi? Adabiyot ta‘sirining namoyon bo‘lish shakllari qay tarzda kechadi? degan savollarning paydo bo‘lishi ham tabiiy albatta. Bularga muayyan ijodkor badiiy olamini tadbiq etish orqali javob topishimiz mumkin. Ana shu holat bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini tashkil etadi.

Har qanday shoir yoki ijodkorning kamolotga erishuvi eng avvalo uning milliy g‘oya va qadriyatlarga qanchalik sadoqat va ularni o‘z ijodida qo‘llay olishdadir. Ana shunday milliylikni, Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatni o‘z ijodida kuylay olgan ijodkor sifatida Muhammad Yusufni ko‘rsatishimiz mumkin.

¹Karimov I.A O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida xavsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari Toshkent. 1997-yil. 137-bet.

Muhammad Yusuf she'riyati o'zbek adabiyoti uchun o'ziga xos takrorlanmas hodisadir.

Ulug' shoir Alishe'r Navoiy ta'biricha "Guhari sharifga" teng bo'lgan narsa bu so'zdir. U o'zining "Muhokamat ul – lug'otayn" asarida so'zning buyukligi haqida quyidagicha yozadi: "...Ko'ngil barcha ma'nolarni joylagan ummondir, so'z ko'ngil dengizidagi bir inju. Dengizdagi injuni olib chiqqani va uning qiymatini tayin etganidek, ko'ngildagi so'z injusi so'zlovchi tarafidan bezaladi, qiymati ham anglash darajasining nisbatiga ko'ra belgilanadi... ."² Haqiqiy qiymatli so'z injularini chin iste'dod egalarigina yarata oladilar. Muhammad Yusuf ana shunday iste'dod egasidir. Shoir she'r haqida, shoir haqida quyidagi fikrlarni bildiradi : "Men shoirman degan zotdan qo'rqing , chunki undan har baloni kutish mumkin. Haqiqiy shoir hech qachon iddao bilan o'zini tanishtirmaydi. Aksincha uni allaqachon xalq tanlab, saylab olgan bo'ladi..."

Aslida she'r ham odamdek gap. Uning yuzi, ko'zi, qiyofasi va libosi bor. Ba'zi she'rlar satang ayollardek yasangan. Pardozi andozni ham joyiga qo'ygan. Ularda birgina yetishmovchilik bor, xolos, samimiyat yuki. She'r nima? She'r yozilaveradi. Kitoblar ham bosilaveradi. Shoir kamaysa, ana, qancha uddabironlar bor – kitob kamaymaydi. Biroq, haqiqiy adib, shoir har yili osmondan chalpakdek yog'ilavermaydi". Shoirning bu fikrlari haqiqat ekanligini bugungi kunda siz biz juda yaxshi anglab yetganmiz. Chunki she'riyat – inson ko'ngliga malham bo'luvchi buyuk san'atdir. Muhammad Yusuf o'zi ta'kidlaganidek samimiylikni, oddiylikni o'zida mujassamlashtirgan, xalq saylab olgan shoir. Uning barcha ijod namunalari

² Boboyorov O', Xolsaidov F. Adabiyot. Toshkent. Ilm ziyo.2006-yil. 7-bet.

yurakdan aytilgan qo‘shiqlardan iborat. Dar haqiqat “Haqiqiy ilhom bilan yurakdan aytilgan so‘z hech vaqt o‘z qimmatini yo‘qotmaydi.”³

Biz bilamizki O‘zbekiston xalq shoiri, hammamiz uchun sevimli bo‘lgan Muhammad Yusufning ijodi xalqimizni kelajak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun xizmat qilib kelmoqda. Shoirning o‘ziga xos qiyofasi, uslubiy mahoratini o‘rganishga urinish ham mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining o‘rganilish darajasi. Muhammad Yusuf haqida ko‘plab tatqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib ular mazmunan shoirning ijtimoiy, siyosiy faoliyat, boy adabiy merosining tahliliga bag‘ishlangan. Shoir haqida Naim Karimov, Umarali Normatov, To‘lqin Nurmuhammad, M Jo‘rayeva, B.Mirkamolova, D.M. Shodiyeva va boshqa bir qator ijodkorlarning ilmiy maqolalari chop ettirilgan va hozirgacha davom etib kelmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi M.Yusuf ijodida Vatan mavzusini tarannum etuvchi she’rlarni tahlil va tasnif etish. Bu orqali yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘zligini anglash, o‘zida g‘urur va iftixor tuyg‘ulrini tuyish, mustaqillik mohiyatini teran tushunib, uning qadriga yetish kabi tushunchalarni shakllantirishda shoir she’rlarining ahamiyatini aniqlash. Shu bilan birga quyidagi

...Yuraklarda yurmagini
Oh, oldindan bilgan qush
Har o‘zbekning yuragini
O‘ziniki qilgan qush⁴

³ I.Haqqul Mushoxoda yog‘dusi. Toshkent. Fan. 2009-yil. 26- bet.

⁴ M.Yusuf.Saylanma.Toshkent.Sharq. 2005-yil.273-bet.

misralarda ta'riflanayotgan shoir M.Yusuf va uning ijodini o'zbek adabiyoti hamda o'zbek xalqi orasidagi o'rnini ko'rsatib berishdan iborat.

Zero prezidentimiz: "O'zbek nomini, o'zbek ilm fani va madaniyatini bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanligini, dunyoga namoyish qilishda yurtimizda yetishib chiqqan yuzlab ulug' zotlar fidoiyluk namunalarini ko'rsatganlar, ular ijodini o'rganish jasorat sanaladi"⁵ deya ta'kidlaydi.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarga e'tiborimizni qaratdik.

– M.Yusufning o'zbek adabiyotida Vatan kuychisi sifatidagi faoliyatini yoritish.

– She'riyatimiz rivojiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan ustoz shoirlarimiz ijodida Vatan timsolini yoritilishi orqali mavzuni chuqurroq anglash.

- M.Yusuf to'plamlaridagi she'rlarida yoritilgan Vatan obrazini aniqlash va to'plash.

- Vatan obrazi aks ettirilgan she'rlaridagi g'oyalarni yosh avlod qalbiga singdirish.

- Barkamol avlodni istiqloq ne'matlarining qadriga yetish ruhida tarbiyalash.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishida o'zbek she'riyatida eng asosiy mavzu va g'oyani tashkil etuvchi istiqloq va ona yurt mavzusini shoir M.Yusuf she'riyatidagi yangicha talqinini, shoirning ijodidagi bu mavzuning salmog'ini, boshqa shoirlarimiz ifoda usulidan nimalari bilan ajralib turishini va barkamol avlodni istiqloq

⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.Toshkent. Ma'naviyat.2008-yil.121-bet.

ne'matlarining qadriga yetish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini aniqlaymiz.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishida M.Yusuf she'riyatining o'zbek adabiyotida, barkamol avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati atroflicha o'rganildi.

M.Yusuf va uning she'rlarida Vatan mavzusining yangicha yoritilishi ustoz shoirlarimiz ijodiga qiyosan o'rganildi. Ushbu jihatdan shoir qalamiga mansub she'rlarning nozik jihatlarini anglash, his qilish imkoni berildi.

Bitiruv malakaviy ishining materiali oliy o'quv yurtlari umumtalim maktablari, kollej va akademik litseylar uchun mustaqillik davri o'zbek adabiyoti, she'riyati bo'yicha kurs ishlari, mustaqil ta'lim topshiriqlari yozishda yaxshi samara beradi.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari .

- “Saylanma”
- “Xalq bo'l elim”
- “Vatanim”
- “Biz baxtli bo'lamiz”
- “Iqror”
- “M.Yusuf saboqlari”

Bitiruv malakaviy ishining tuzilshi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Mustaqillik davri she'riyatida

Vatanning kuylanishi

O'zbek xalq yozuvchisi Said Ahmadning shunday so'zlari bor: shunday kishilar bo'ladiki, ulardan biri, birortasi paydo bo'lsa davraga fayz kiradi, Suhbati jahon bunday kishilarni "shoiri odam"⁶ deb aytadilar"! Chindan ham, shoir nafaqat davra ko'rki, balki millat, Vatanning ko'rki, faxridir.

Hozirgi kun she'riyati yangicha ruh yangicha qarashlar bilan boyitilayotganday betakror misralar bilan bezatilmoqda.

She'riyatda ham mavzu chegara bilmaydi. Ayniqsa bugungi dorilomon kunlarda. Biroq istiqlol va Vatan tuyg'ularining tarannum etilishi deyarli qalam ahli uchun dolzarb mavzuga aylangan. Bu kunlar zavqini xalq quvonchini kuylashning o'zi shoirlarimiz uchun sharafdir. Chunki ne-ne ijodkorlar, xalqning buyuk shoir-yozuvchilari mana shunday faraxbaxsh kunlarni qog'ozga jo qilishni orzu qilib, armon bilan dunyoni tark etadilar. Birgina misol tariqasida el kuychisi o'zbek xalqining faxri bo'lgan A.Sulaymon o'g'li cho'lponni, uning ijodini esga olib ko'raylik. Cho'lponning butun vujud, yaratgan har bir asari "erk" deb hayqirganining guvohi bo'lamiz.

Zero shunday ekan, hozirgi davr shoir va yozuvchilari Vatan ozodligi, uning hurligini madh etish, madh etganda ham ovozini baralla qilib kuylashi tabiiydir. Istiqlolga erishganimizdan keyingi yillari har biri juda katta o'zgarishlar, yuksalishlar bilan boyib boryapti. Xalqimizning ham moddiy, ham ma'naviy hayoti albatta, yaxshi tomonga qarab o'zgarayapti. Shu yillar dastavvalidan ma'naviy hayotimizda yangi bir uyg'onish ro'y

⁶ S.Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. Toshkent. 2000-yil, 67-bet

berdi, o'zligini milliy qadriyatlarini anglash kuchaydi. Badiiy adabiyotga munosabat tubdan o'zgardi. Fikrlar xilma xilligi, uchun keng yo'l ochildi. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi qonun bilan rasmiylashtirildi. Konstitutsiyaning 12-moddasida "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas"⁷ deb yozib qo'yilgan.

Bu ijtimoiy, ma'naviy, adabiy taraqqiyot uchun muhim trixiy ahamiyatga ega. Ehtimol, o'zbek xalqi, adabiyot va san'ati tarixida ilk bor shunday kafolatga ega bo'ldi. Bunday kafolt samarasini esa, amalda ko'rib turibmiz.

Inson uchun erkin yashashdan ko'ra kattaroq baxt, o'z Vatanidnida beklikda umr kechirishdanda ko'ra yuksakroq iqbol bo'lmasa kerak. Shuning uchun o'z vataniga bag'ishlab she'r yozmagan, uning istiqloli, hurligi haqida g'ururga, cheksiz quvonchga to'lib qalam tebratmagan shoir dunyoda topilmas. She'riyatning o'zi esa ilohiy bir kuchga ega.

Vatanga muhabbat, onaga muhabbat kabi muqaddas va buyuk tuyg'u Ollah insonga Vatanni muzliklarda ham, sahrolarda ham, changalzorlarda ham ato etishi mumkin. Lekin, yaratgan bizga O'zbekiston deb atalgan tuprog'ida oltin bor, har tongda bulbullar madhini o'qib tugatmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergan. Buning, uchun biz o'zimizni baxtli deb bilmog'imiz kerak. Taniqli adabiyotshunos O. Sharafiddinovning shunday so'zlari bor:" ... Vatan bizga ato etilgan ulug' ne'mat ekan: Vatanga muhabbat ham har birimizga berilgan ulug' ne'matdir "⁸. darhaqiqat vatan barchamiz uchun muqaddas. Ana shunday vatanni sevgan vatanparvar shoirimiz. M.Yusuf lirikasida ona yurtimiz madh etilgan she'rlar juda ko'p.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. 1990-yil.7-bet.

⁸ Sharafiddinov O. .Ma'naviy kamolot yo'llari.Toshkent.2001-yil.26-bet.

Uning she'rlari qanaqa dolzarb mavzuni ilgari surishidan qat'iy nazar har birining zamirida tug'ilib o'sgan diyori uning beqiyosligi e'tirof etilgan.

“M.Yusuf ijodida o'zbek xalqi yurtisiz tasvir topmaydi. Quyidagi parchada ham fikrimiz to'g'riligining guvohi bo'lamiz.

Ehtirom etganida ehromlari bor,
Kekkaygan bo'yin egmagay zinhor.
Beshik to'la jajji Islomlari bor -
Tosh o'tmas qo'rg' o'xshaydi o'zbek

Kindik qoni tomgan tuproq unga shon,
Kerak bo'lsa, beso'z baxt etar u jon-
Ko'krakka urmaydi: Vatan deb, Vatan!
Alpomish o'g'longa o'xshaydi o'zbek. “⁹

Yuqoridagi she'rda asosan el ta'rifi, o'zbek millatiga xos fel-atvor chizgisi berilgan lekin, u yurtsiz hech kim emas. Shuning uchun ham, millat vatani birgalikda ajoyib suratga tushirilgan. Chunki, shairning o'zi uchun ham yolg'ondan Vatan deb ko'krak kerish yod narsa, shoir shunchaki og'iz ko'pirtitib qog'oz qoralamaydi. U bitgan misralar yuragidan, shoirning ko'ksidan hayotga kelgan. Shuning uchun ham M.Yusufning she'rlari purma'no va serjiloligi bilan ajralib turadi.

⁹ I.Haqqul. Mushohada yog'dusi.Toshkent. Fan.2009-yil. 22-bet.

1.1. Vatanparvar shoir siymosiga chizgilar

Bo‘lmoq uchun inson mukammal
Ko‘p narsalar zarurdir beshak
Ammo dilga baridan avval
Mehr kerak, muhabbat kerak.

Ana shunday mehr va muhabbatni hayotining mazmuniga aylantirgan, samimiyligi, soddaligi bilan xalqining muhabbatiga cheksiz hurmatiga sazovor bo‘lgan shoir M.Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ildi.

Uncha uzoq umr ko‘rmagan bo‘lsada samarali ijodiy faoliyat olib bordi. Darhaqiqat yozuvchi I.Haqqul aytganidek “Yozuvchining umri yil bilan o‘lchanmay ijodiy faoliyatining samarasi bilan o‘lchanadi”. Shoirning ilk to‘plami “Tanish teraklar” deb nomlanadi. Birinchi kitobi chiqqandayoq uni elga tanitdi, to‘plamdagi she‘rlaridan dunyoga kelgan diltortar qo‘shiqlar esa uni mashhurlik darajasiga ko‘tardi. Iste‘dodli shoirning “Bulbulga bir gapim bor”, “Uyqudagi qiz”, “Halima enam allalari”, “Ishq kemasi”, “Ko‘nglimda bir yor”, “Bevafo ko‘p ekan”, “Yolg‘onchi yor”, “Erka kiyik”, “Osmonimga olib ketaman” kabi ko‘plab she‘riy kitoblari bosilib chiqqan.

2004-yilda “Erta so‘ngan yulduzlar” nomli bir kitob dunyoga keldi. Bu kitob mashhur shoir, bastakor, xonanda, jurnalistlar hayoti, Ularning qilgan ishlari, unvonlari, yutuqlari va boshqa jihatlariga bag‘ishlangan edi. Ko‘plab ijod sohiblari qatori shoir M.Yusufning ham jurnalistlar bilan suhbatlari, shoirning e‘lon qilishga ulgurmagan she‘rlari, u haqida maqolalar, vafotidan keyingi do‘stlarining xotiralari, marsiyalari hamda umr yo‘ldoshi Nazira as-Salomning jurnalistlar bilan muloqotlari matnini to‘plab kiritilgan

va jamlangan. Bu yigʻilgan materiallar shoir ijodini oʻrganuvchilar uchun muhim bir manba boʻlib xizmat qiladi.

“Erta soʻngan yulduzlar” kitobida shoirning journalist Orif Toʻxtash bilan suhbatini bayoni keltirilgan.

Prezident qoʻlidan xalq shoiri unvonini olgan Muhammad Yusuf koʻngil kechinmalarini quyidagicha izohlaydi.

“...Bilasizmi qaysi sohada boʻlmasin, mehnatingizni ozgina boʻlsada qadrlab, barakalla deb yelkangizga urib qoʻyishsa, bu katta bir dalda boʻlishi turgan gap. Mening ham kimgadir keragim bor, deb koʻngildan oʻtkazasiz. Ruhlanasizda! Kamtarin ijodini shu qadar yuksak unvon bilan taqdirlaganlari uchun juda minnatdorman”. Shu darajadagi ulugʻ unvondan ruhlangan shoir yana ham qizgʻin ijod qila boshladilar. Muhammad Yusuf uchun eng muhim janr bu sheʼriyat edi. Nasr haqida shunday degan: “Qoʻlimdan keladigan ish lekin men uchun eng muhimi – sheʼr uni qizgʻonaman”-deb yozgan edi. Sheʼriyatni buyuk neʼmat deb bilgan adib, sheʼrga ham yuksak taʼrif beradi.

Sheʼr bu – shirin dard ozor, shoir – shu dard bemori yurakdagi oʻsha sheʼr qogʻozga tushmaguncha baʼzi hollarda uyqu ham kelmaydi. Uni yozib bitgandan keyingi rohat boshqacha boʻladi deya takidlagan M. Yusuf shunday sheʼriyatga butun umrini, mehrini bahshida qilgan shoir edi.

Shoir oʻzbek sheʼriyatining zamonaviy davrlari bilan bir qatorda mumtoz adabiyot vakillaridan A. Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Bedilni sevib oʻqigan va buyuk zotlarga munosib voris boʻlishga harakat qilgan. Bundan tashqari rus shoirlaridan Anna Axmatova, Sergey Yesenin va oʻzbek adabiyotining zabardast shoirlaridan R. Parfi, Abdulla Oripovlar ijodini koʻp oʻqib ular ijodidan ozuqa olgan.

Shu bilan bir qatorda juda ko‘plab ijodkorlar orasida o‘z ovozi, o‘z yo‘li va o‘z uslubiga ega bo‘lgan shoir sifatida tan olingan.

Muhammad Yusuf she‘rlari soddaligi, samimiyligi, xalqning ruhiga yaqin bo‘lganligi uchun ham kitobxonning ko‘ngil xazinasiga aylandi. Uning she‘rlarida o‘zi tug‘ilib o‘sgan Vatan, yurt ruhiyati manzaralari yaqqol ko‘rinib turadi. “Uyqudagi qiz” she‘riy to‘plami uchun unga respublika yoshlar tashkilotining mukofoti berilgan. Adibning “Yolg‘onchi yor” she‘riy to‘plami keyingi yillaridagi eng sara asarlaridan tashkil topgan.

“U rostgo‘y shoir, halol va pokiza qalb egasi edi. Shoir muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo‘shiq to‘qiydimi yoki tariximiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamkorlik sezilib turadi.”¹⁰

“Muhammad Yusuf qo‘shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o‘xshamagan misralarda ta‘riflagan she‘rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi.”¹¹ Unga mustaqil yurtini, ozod xalqni ko‘rish nasib etdi. Yurtining eng ulug‘ bayramlarida u yaratgan she‘rlar asosidagi qo‘shiqlari baralla yangraydigan bo‘ldi. O‘zbekiston haqidagi she‘rlarini yosh avlod madhiya qilib olganlar. Shoirning qariyb nashrdan chiqqan har bir kitobi muxlislar tomonidan qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketgan va sevib o‘qilgan.

Ijodkor Vatan mavzusiga qayta qayta murojaat etadi. Chunki shoir o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtini, Vatanini hech kimga bermas va hech narsaga alishmas edi.

O‘zbekiston qahramoni Ozod Sharafiddinov shoir haqida shunday fikrlarni bildiradi.

¹⁰ Mirvaliyev S.Shokirov R.O‘zbek adiblari.Toshkent.2007-yil. 240-bet.

¹¹ Sharafiddinov O.M.Yusuf.Saylanma.2004-yil.7-bet

“Muhammad Yusuf degan shoir she’riyatga qanday kirib kelganini adabiyotimiz sezmay ham qoldi. Amma u tezda hammani hayron qoldirib, og‘izga tushib ketdi. Uning ijodi haqida gap ketganda, ko‘pincha qo‘shiqlarini tilga oladilar. U qo‘shiq yozgan ham, o‘zini qo‘shiqchi shoir hisoblagan ham emas. Uning yozganlari nihoyatda dolzarb, juda jiddiy ammo xalq tiliga juda yaqin va ravon tilda yozilgan. Shuning uchun, hofizlar ularni qo‘shiqqa solib yubordilar. Bu qo‘shiqlar qo‘shiqchilikni ham baland pog‘onalarga olib chiqdi. Qancha-qancha hofizlarni elga tanitdi. “Muhammadning she’rlari bir qarashda juda sodda, jo‘n yoziladiganga o‘xshash tuyiladi. Ammo unga o‘xshatib yozib ko‘ringchi? Qo‘lingizdan kelmaydi! Uning oson yoziladiganga o‘xshab ko‘ringan misralari muxlislarini yig‘latadi kuldiradi o‘z og‘ushiga tortib oldi. Odamlar uning she’rlarini hayajonsiz o‘qimaydigan, kitoblarini do‘konlardan qidirib yuradigan bo‘ldilar.”¹²

Shoir haqida bildirilgan bunday fikrlar bejizga emas. Albatta, uning ijodi takrorlanmas hodisadir.

Shoirlar she’rni kimlardan izlaysiz? deb savol berganlarida. Men she’rni faqat ko‘chadan izlab ko‘chadan topaman. Kitob o‘qib she’r yozmayman. Kitobdan nasr topish mumkindir. Kitob o‘qib olim bo‘lish mumkindir, ammo haqiqiy she’r odamlar orasida ularni ko‘ngil ko‘zi bilan qog‘ozga tushira bilish kerak degan fikrlarni bildiradi.

Ijodidagi soddalikga esa shunday fikrlarini izhor etadi. Hayotda jimjimador, balandparvoz so‘zlarni yomon ko‘raman. So‘zni borligicha ifoda etsam deyman. Uning ustidan bo‘yoq surkash mutlaqo ortiqcha. Qanday so‘z bo‘lmasin, o‘rnida ishlatilsa, soddalik va ravonlik o‘z o‘zidan paydo bo‘ladi. To‘g‘ri so‘zlarni bezab haddan tashqari go‘zal qilish

¹² Shukur Qurbon.(to‘plovchi hammuallif).M.Yusuf.Saylanma.Toshkent.2012-yil.18-bet.

mumkin, lekin, uni otangiz onangiz tushunmasa, nima keragi bor. Men shunday deb o‘ylayman.deb takidlaydi Shoir ana shunday samimiylik ko‘rinib turuvchi teran dunyoqarash egasi edi. Shu o‘rinda Vatan nomli she’r misralariga e’tiborimizni qaratamiz.

Ey menga ertaklar so‘ylagan Zamin,
Ergashib izingdan qolmasman sening.
O‘zgalar nazdida Bog‘i Eraming
Jiydang yaprog‘iga olmasman sening.
Vatan, qayda bo‘lmay sen hamrohimsan,
Bobolarim yotar sajdagohimsan.¹³

Ana shunday oddiy misralari insonning eng nozik qalb torlarini chertib oladi o‘z Vataniga shunday muhabbat bildiradiki hattoki dunyodagi eng go‘zal deb kelingan Eram bog‘larini o‘zbekning jiydasi yaprog‘iga ham alishmaydi. She’rlarini kuzatib soda, xalqona, juda mazmundor ekanligiga amin bo‘lamiz.

Chinakam shoirning qalbida allaqanday zohir kuch doimo sayrab turadi degan gapni ko‘p bora eshitgandik. O‘sha qush aynan Muhammadjonning, Muhammad Yusufning yuragida oshyon qurganiga men astoyidil ishonganman. Uning ko‘zlari ham, chehrasi ham hamisha latif bir kuyni xonish qilganday edi.

Vatan haqida juda ko‘p yozilgan. Yozilgani yaxshi, albatta. Biroq yozmoq bilan yozmoqning farqi bor. M Yusuf bir she’rida “Yurtim seni iddaolar qilmay sevaman” deb aytganda qanchalar haq edi. Darhaqiqat u o‘z elini, xalqi, vatanini chin farzandiday beg‘araz sitqidildan yaxshi ko‘rar edi. Shu mehrning natijasi o‘laroq, uning she’riyati ham xuddi shundoq beminnat

¹³ M.Yusuf. Ulug‘imsan Vatanim.Toshkent. O‘zbekiston. 2010-yil. 9-bet.

va beg‘araz she‘riyat sifatida maydonga keldi va bu oqko‘ngil, osmonqalb shoirdan xuddi shunday she‘riyat yodgor qoldi.

“Men Muhammadjon bilan uzoq yillar mobaynida yonma – yon yashadim, yonma – yon ijod qildim, yonma – yon ishladim. Hali yoshlik yillaridayoq bunchalik ko‘p muxlis orttirgan, do‘st og‘aynisi bisyor ijodkorni ham ko‘rmaganman. San‘atkorlar – ku, uning har bir misrasini sozga solishga tayyor edilar. Bularning sababi nimada? Birinchi navbatda Muhammadjon yaxshi inson edi. Yaxshi insonlarga esa boshqalar hamisha talpinadilar. Odamdan odam uzoqlashishini Xudoyim hech kimga ko‘rsatmasin.

U obro‘ talashmas, izzatini so‘roqlab yugurib yurishidan or qilardi. Xuddi shundoq yaxshi insongina yaxshi jodkor bo‘lishi tabbiy va qonuniydir. Shu kabi yuksak fazilatlarini tufayli Muhammad Yusufni xalqimiz ardoqladi yurtboshimiz otalarcha mehr ko‘rgazdi. Uning xizmatlarini davlatimiz munosib baholadi.

Muhammad Yusuf qisqa umr kechirdi. Undan chinakkam ijodiy me‘ros qoldi. Haqiqiy ma‘nodagi barhayotlik, zavol bilmaslik Muhammad Yusuf ijodiga ham taaluqli bo‘lgan desam inshoolloh, hato qilmagandirman”¹⁴ deb yozgan edi. O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov.

Istiqlol yillarida erishgan yuksak ijodiy yutuqlari uchun Muhammad Yusufga 1998-yilda “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni berildi. Afsuski Muhammad Yusuf umri qisqa bo‘ldi. U 2001-yilning 31-iyulida Qoraqalpog‘istonning Ellikqal’a tumaniga qilingan ijodiy safar chog‘ida, yurak xurujidan vafot etdi. Xuddi Boburdek, Shavkat Rahmondek Muhammad Yusuf ham 47 yil umr ko‘rdi.

¹⁴ M. Yusuf. Saylanma. Toshkent. Sharq. 2005-yil. 275-bet.

Biroq bu umr bir dilbar shoirning tug‘ilishi kamol topishi, o‘zini voyaga yetkazgan yurt va millatga samimiy va ixlos ila xizmat qilib, ortidan yaxshi nom qoldirish uchun kifoya qiladi.

Ol deya bir Egam, osmonga uchsa ruhlarim,
Bir ajib moviy diyori bo‘ynini quchsa.
Ko‘k mening ko‘ksim bo‘lur, yulduzlari-anduhlarim,
Qo‘l o‘pib, gul yopib har dilda mozorim qolur
Men ketarman bir kun, navolarim, sozim qolur.....

deb yozgan edi shoir.

Vatan to‘g‘risidagi, yurtimiztarixida o‘tgan ulug‘lar nomlarini birma bir sanab, moziyda bo‘lgan voqealarni eslab ulaga hamdu sanolar aytish tarzida yozilgan she‘rlarning soni boru sanog‘i yo‘q. ularning deyarli barchasida Amir Temur, Manguberdi, Navoiy va Boburlar, Cho‘lpon va Filratlar albatta tilga olinadi, hammaga ma‘lum sifat va o‘xshatishlar orqali ular ulug‘lanadi. Biroq nima uchun ularning birortasi Muhammad Yusuf she‘ri singai mashhur bo‘lmadi? Nega bu she‘riy timsollar millionlar holiga jonli his bo‘lib ko‘chib o‘tmadi.

Demak, Vatan to‘g‘risida kuylash ham har xil bo‘lar ekan-da, Bu she‘r-u, qo‘shiqning ham samimiysi, yurakdan chiqib yurakka boradigani va ta‘sir qiladigan bo‘lar ekan-da.

Muhammad Yusufning “Vatanim” she‘rini bir eslaylik

Men dunyoni, nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim,
O‘zim xoqon,
O‘zim sulton,
Sen taxti Suloymonim,
Yolg‘izim,

Yagonam deymi,
Toppingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim....

Shoir Vatani­ga shunday muhabbatini ko‘rsatadi. Qalbining tub tubidagi tuyg‘ularini o‘z misralarida namoyon qiladi. Uni yolg‘izim, yagonam deb ulug‘laydi.

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen.
Yuzing bosib yuzimga,
Singlim deymi,
Onam deymi.
Hamdardu hamxonam deymi,
Oftobdan ham o‘zing mehri –
Ilug‘imsa, Vatanim.

Shoirning ona yurtidan tuygan mehri xuddi singilning, onaning mehridek iliq, yaxshi va yomon kunlarida har doim birga, mehrini esa oftobga qiyoslaydi.

Sen Mashrabsan
Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan,
Navoiysan, shoh yonida
Faqrni duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko‘ringan da’vo qilgan

Ming bir yog‘i ochilmagan
Qo‘rig‘imsan, Vatanim.

Uning uchun Navoiy, Mashrab, Yassaviy bir inson ismi emas balki xalq millat fazilati, xalq va millatning mujassam ismidir. Bu ismlar bag‘riga shoir xalq tarixini, uning eng zafarli va eng achchiq kunlarini jamlaydi.

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig‘i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Shoir o‘z misralarida shonli tarixni qog‘ozga tushuradi, Muqanna Shiroq kabi siymolarda Vatanni ko‘radi.

Kim qashqarni qildi makon,
Kim enasoy tomonda,
Jaloliddin – Kurdistonda,
Boburing - Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolig‘ deb,
Yotarlar zimistonda,
Tarqab ketgan to‘qson olti
Urug‘imsan, Vatanim...

Chor hukumati tomonidan yurtidan chiqib ketishga majbur qilingan, umrbod ortga qaytolmay, Qashqar tuprog‘ida xoki qolgan shoir Furqat, sho‘ro davlati qatog‘oni qurboni bo‘lgan, Sibr o‘monlarida daraxt kesib umri

chirigan Usmon Nosir yodga olinadi. Jaloloddin Manguberdi va Bobur qismati esa, sizga yaxshi ma'lum. Tarix yo'llarida tarqab ketgan ajdodini, urug'ini Vatan deydi.

O'g'lim, desang osmonlarga
G'irotda bo'lib uchgayman,
Chambil yurtida Alpomishga
Navkar bo'lib tushgayman,
Padarkushday panoh qilib
Ulug'beging quchgayman,
G'ichir-g'ichir tushimdagi
So'lig'imsan, Vatanim...

U bir aka bo'lib, bir o'g'il bo'lib Vatan mehriga javob bergisi, agar shu yurt "o'g'lim" deya unga mushtiq bo'lsa, har qanday mushkilot qarshisiga chiqqisi, kelgusi padarkushlardan kelajak Ulug'beklarni pana qilib chiqqisi keladi.

O'tgan kuning-o'tgan kundir,
O'z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergan zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo'lin bog'lab,
Dilin dog'lab,
Yetaklashib ketgan kun,
Voh bolam deb aytolmagan
Dudug'imsan, Vatanim.

Qodiriyydek ulug' zotlar tug'ilgan zaminning boshidan nelar o'tmadi, qanday kunlarni ko'rmadi. Qodiriyydek o'g'lonlarining boshiga tushgan kulfatlar shohidi bo'lgan Vatan.

Yoningda qon yig‘lagan bir
Shoiringa qarab qo‘y,
Gar Qo‘qonga yo‘ling tushsa,
Deddomlarni so‘rab qo‘y.
Keltirmoqqa yarab qo‘y,
Olislarda qurib qolgan
Qudug‘imsan, Vatanim....

Shoir o‘zini Vatanga sodiq chin farzand deb biladi. Xalqini, elini birdamlikga chaqiradi, o‘tgan davrlarda yuz bergan mashum kunlar takrorlanmasligini chin dildan xohlaydi.

Sen shohlari osmonlarga,
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O‘g‘lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo‘ynimdagi iftixorim.
Bo‘ynimdagi tumorim,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim!¹⁵

Ana shunday shohlari osmonlarga bo‘y cho‘zgan Vatandan faxrlanadi, uni har balolardan asraguvchi tumorga qiyoslaydi. Har bir bandi oldida Vatanga beriladigan sifatlar “ulug‘imsan”, “ilig‘imsan”, “qo‘rig‘imsan”, “cho‘lig‘imsan”, “urug‘imsan”, “qudug‘imsan” kamida yuz yillik hodisalar natijasi, quvonchi, alamini ifoda etib keladi. Shoir she‘riyatida Vatanga muhabbati ana shunda takrorlanmas tarzda ifodalanadi.

¹⁵ M. Yusuf.Saylanma.Toshkent. Sharq.2005-yil. 12-bet.

U har bir giyohdan tortib daraxtgacha, zarradan ummongacha ularda
Vatan qiyofasini ko‘radi, muhabbatini ifoda etadi.

1.2. Yetakchi ustoz shoirlarimizning ijodida Vatanga muhabbatning ifodasi

Adabiyotimiz misoli bir dengizdir bu dengizga qancha tomchi suv kelaversa, yani oqaversa shuncha suvning ko'payishi sodir bo'ladi, adabiyotni ham qancha o'rgansak ham hammasini bilishga qodir emasmiz. O'z xalqi qalbiga chuqur kirib borgan o'z ijodida Vatanga bo'lgan muhabbatini tarannum etgan shoirlarimizdan biri Erkin Vohidovdir.

Erkin Vohidov she'rlarida Vatanparvarlik, Vatanga sadoqat ruhi ufurib turadi. Haqiqiy ijodkor o'z xalqining fidoiy va sodiq farzandi bo'ladi. Bu hamma zamonlarga, hamma xalqlarga xos udum. E. Vohidovning talay asarlari bunga misol bo'la oladi. Birgina "O'zbekim"ni oling! U oddiy madhiya faxriga emas. Hajmi kichik asarda xalqimizning minglab yillik tarixi, quvonch va istiroblari g'oyat tabiiy, g'oyat teran aks etgan. Shoirning deyarli har bir she'rida Vatan madhi ufurib turadi. "O'zbekim" insonning sha'ni g'ururi or nomusi "O'zbekim" bir dard bilan ichki tug'yon bilan yozilgan she'rdir."E.Vohidovni hammadan burun insonning ma'naviyati, e'tiqodi masalasi qiziqtiradi. Inson ezgu ishlari, yuksak e'tiqodi bilangina insondir. Shoir uchun Vatanni sevish masalasi birinchi o'rinda turadi".¹⁶

O'zbekning qaddini bir pog'ona ko'targan mashhur qilgan bu g'azal barcha o'zbekning or nomusiga aylandi.

Tarixingdir ming asrlar

Ichra pinhon o'zbekim

Senga tengdosh Pomiru

Oqsoch Tyanshan o'zbekim

¹⁶XXI asr o'zbek adabiyoti. Toshkent. 1999-yil. 91-bet.

Qasidasinig boshlaish satrlari shunday misralar bilan boshlanadi. O'zbekning tarixi ming yillar davomida pinhon bo'lib keldi. U Pomiru Tyanshan tog'lari bilan tengdosh. Ularning sir-sinoatlari kabi yurtimizning sir-sinoatlari shunchalik ko'pdir.

So'ylasin Afrosiyobu
So'ylasin O'rxun xati
Ko'xha tarix shodasida
Bitta marjon, o'zbekim.

Afrosiyob Samarqandning qadim yodgorligi. Biz ko'rmagan asrlarni ko'rgan Afrosiyob o'zbeklarning buyuk o'tmishini so'ylasin deya o'zbekni tarix shodasining bitta mayoniga qiyoslaydi.

O'tdilar sho'rlik boshiningdan
O'ynatib shamshirlarni
Necha qoon, necha sulton
Necha ming xon o'zbekim.

Yurtimiz ne-ne kunlarni boshidan o'tkazdi. Qanchadan-qancha yovlar uni yo'q qilib yubormoqchi bo'lishdi. Oллоhga shukurki mana shunday yovlarni bosib o'tib tinch zamonga erishdik.

Tuzdiyu Mirzo Ulug'bek
Ko'ragoniy jadvalin
Sirli osmon toqiga ilk
Qo'ydi Narvon o'zbekim.

Tarixda bizning ajdodimiz, bobokalonimiz Mirzo Ulug'bek 1018 ta yulduzni

She'riyatning gulshanida
So'ldi mahzun Nodira

Siyim tonni yuvdi ko‘z yosh,

Ko‘mdi armon, o‘zbeginim.

Tariximizga, adabiyotimiz tarixiga bir nazar tashlaydigan bo‘lsak yetuk shoir-u, shoirlarimizning ijod namunalarini ko‘rib ulug‘ iqtidor egalarining avlodlari ekanligimizga yana bir karra amin bo‘lamiz. Ammo ana shunday iqtidor egalari hayot so‘qmoqlarida zamon qurboniga aylanishdi. O‘zbekning erkin malikasi buyuk shoira Nodira va uning fojiasi o‘tmishimizning bir guli so‘lishini Erkin Vohidov mahorat bilan tasvirlagan.

Tarixing bitmakka xalqim

Mingta Firdavsiy kerak

Chunki bir bor chekkan ohing

Mingta doston o‘zbeginim.

Buyuk shoir Firdavsiy “Shohnoma” asarining muallifi. U “shohnoma” asarida xalqlar tarixini yoritgan ammo, shoir e’tiroficha mingta Firdavsiy ham o‘zbek xalqining buyuk o‘tmishini qog‘ozga solishga ojizlik qiladi. O‘zbekning buyuk tarixga ega ekanligini ko‘rsatib, bir bor chekkan ohini mingta dostonga qiyoslaydi.

Ortda qoldi ko‘hna tarix

Ortda qoldi dard, sitam.

Ketdi vahming, ketti zahming

Topdi darmon, o‘zbeginim.

Chindan ham o‘tmishdagi qora kunlar o‘tib mustaqillikga erishdik. Endi bemalol o‘z so‘zimizni ayta olamiz. Qasidaning davr talabi bilan quyidagi satrlari tushirib qoldirilgan. “Endilikda biz buni baralla ovoz bilan ayta olamiz.

Bor jahongir o‘g‘ling ammo

Qatli xun birlan emas

Ilmu donishlikda topding
Shuhratu shon o‘zbekim.”¹⁷

Jahongirdek buyuk, jasur, mard o‘g‘lonlaring bor lekin kuch bilan, urush bilan emas ilm, aql bilan dovrug‘ qozongan o‘zbekni yana bir karra ulug‘lanadi.

Men vatanni bog‘ deb aytsam
Sensan unda bitta gul
Men vatanni gul deb aytsam
Bitta mujgon o‘zbekim.

Ushbu satrlarda ham chuqur vatanparvarlik satrlari aks ettirilgan, vatanni bog‘ga o‘zbekni esa gulga, ko‘z gavhariga qiyoslaydi.

Menga Pushkin bir jahonu
Menga Bayron bir jahon
Lek Navoiydek bobom bor
Ko‘ksim osmon o‘zbekim.

So‘z mulkingning sultoni A Navoiyni ulug‘ligini yana bir bor bayon qilyapti. Bizning yurtimiz hech bir yurtidan kam emas. Uning buyukligini dunyoga ko‘rsatuvchi ulug‘ ajdodlari Navoiydek siymolari bor. Bundan faxrlanmaslikning, ko‘ksi osmon bo‘lmaslikning hech iloji yo‘q.

Bu qasidam senga halqim
Oq sut-u tuz hurmati
Erkin o‘g‘lingman qabul et
O‘zbekim jon o‘zbekim.

Yurtiga bo‘lgan cheksiz muhabbati, ojiz kunlariga achinish hissi, buyuk insonlaridan faxrlanish o‘zbekligidan g‘ururlanish tuyg‘ulari aks

¹⁷ Boltaboyev. So‘z sehri. Toshkent. 2006-yil. 98-bet.

ettirilgan. “O‘zbegin” qasidasi bugun yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida darsliklardan joy oldi.

Har bir asarda shoir qalbi, uslubi, bilimi, iqtidori shoir baxti shundaki uning har bir asari qaridan sanatkorning betakror uslubi, ovozi, o‘zligi aniq, tiniq bilinib, eshilib, ko‘rinib turadi. Vatan mehri, Vatan sog‘inchi, Vatan borligi uchun tinmay mehnat qilib, el-u yurtga foydasi tegadigan inson bo‘lishni xohlaydi.

Ish o‘ldirmas, ishhol o‘ldirar
Jon zavoli yuz yoshmas ko‘z yosh
Inson nega dunyodan ketar
Quvlab unga otmasalar tosh.¹⁸

Istiqlol arafasida mamlakat mustaqil bir yo‘lga chog‘langan pallada el uning taqdiri haqida qayg‘urish, bo‘lajak yo‘lini to‘g‘ri belgilash harakati bilan yashadi. Bu qadim vatanda bir vatan qurmoqni, uning yelkanlari qiblai iymon sari burmoqni istagan shoir shunday yozadi.

Bas yetar yolg‘on saodat
Yolg‘on erk, yolg‘on vatan
Hurriyat zavqini chin surmoqni
Surmoqni istaydir ko‘ngil.

She‘r ahli qanchalik bag‘ri keng bo‘lsa Vatan madhini shunchalik tez yurakga joylaydi. Vatan bu insonning eng muqaddas maskani ekanligini bot-bot shoir takrorlaydi.

Yana bir vatanparvar shoirlarimizdan biri A.Oripovdir. A.Oripovning saylanmasida keltirilgan quyidagi misralariga qarang

Turkistonning bog‘larida bulbullari bor, holbuki
Xor bo‘lsa ham tog‘day baland ko‘ngillari bor, holbuki.

¹⁸ Oripov A.Saylanma.Toshkent.Ma’naviyat.2007-yil. 128-bet.

Agar mushohada qilinsa, “Holbuki” zimmasiga yuklangan shoir g‘oyasini anglab olish qiyin kechmaydi. Insoniy dard bilan yo‘g‘rilgan she‘riyat yoqimli va tasirchan bo‘ladi. Chunki insonning qalbi kulgidan emas, dard va iztirobdan poklanadi.

A.Oripovning she‘ri shundaydir. She‘rning qahramoni men bo‘ladimi yoki uchinchi shaxsmi, uning dard va armonlarini ifodalaydi. “Sharof Rashidov xotirasiga” nomli she‘ri bunga yaqqol misol bo‘ladi. Sirtidan qaraganda she‘r bir kishining xotirasini ya‘ni boshidan o‘tganlarini qaydidek tuyiladi. Lekin ong mushohadaga yo‘llantirilsa bu xotira zaminida butun xalqning bosib o‘tgan yo‘li, dard va fojiasi o‘z mujassamini topganligi anglashiladi.

O‘ychan ko‘zingizda ne g‘am bor edi,
Kelajakmido moziyning shoni?
O‘zbek-ku bir erkka intizor edi,
Sizni ado qildi bir armoni.

Erksevar ellarning orzusun yoqlab
Xayol dengizida tunlar kezgansiz
Istiqlol so‘zini yurakda saqlab
Siz qafas ichida gullar tuzgansiz.

Har shoir aytganidek o‘tmishda dunyo qafas ichidagi hayot edi Erkin so‘zlab, dildagini erkin izhor qilib bo‘mas edi. Bu yerda “qafas ichida” tashbehi ikki ma‘noni anglatadi. Ijtimoiy ma‘noda o‘tmishdagi tuzum, falsafiy ma‘noda fikr erksizligini ifodalaydi. Ya‘ni erk istiqlool haqida fikr aytish, uni orzu qilish dildagina bo‘lishi mumkin. Dil esa fikr, so‘z qafasidir. Istiqlool kishini undan ozod qiladi. Shoir shu imkoniyatga qulluq qilgan ekan.

Butun xalqqa qulluqni nazarda tutadi. Chunki Sharob Rashidov xalqning otasi edi.

Qulluq, Sharob ota, ming bora qulluq,
Boqiy O‘zbekiston sizga ham yodgor,
Bugun u istiqlol shavqiga to‘liq,
Xizmatingiz eslar takror va takror.

Bu bari haqiqatdir. Vatan tushunchasi A.Oripov she’rlari serma’no va rang-barangdir. Keng miqyosda qaraganda, shoir va uning lirik qahramoniga “Shu buyuk sayyora yagona vatan bo‘lib ko‘rinadi. Biroq ona Vatan deganda faqat O‘zbekistonni tushunadi. Bu mavzu shoir ijodining eng nurli va porloq sahifalarini tashkil etadi. Zero u suhbatlardan birida” Sevich –dardim –bari vatanim” odeyishi bejiz emas.

Vatan haqida gap borar ekan, Abdulla Oripov shoirning burchini faqat madhiyabozlikdan, yurtni faqat ulug‘lashi ko‘klarga ko‘tarishdan iborat deb tushunmaydi. To‘g‘ri u Vatan go‘zalligini, iqbolini kuylaydi, biroq uning sermashaqqatli tarixi va taqdirini haqqoniy gavgdalantirish maqsadida ko‘proq Vatan dardini kuylaydi. Bir fidoiy farzand kabi uning dardlariga malham bo‘lgisi keladi. Bu Vatan tarixida ko‘pdan ko‘p buyuk farzandlarga, ulug‘ kashfiyotlarga insonparvar g‘oyalarga doya bo‘lganini dunyoga ko‘z-ko‘z qiladi. Hozir ham uning o‘shal tarixiga munosib bo‘lishini istab o‘zini tug‘yonlar bag‘riga uradi.

O‘zbekiston mustaqilligi munosabati bilan A.Oripov ijodida ona–yurt va Vatan mavzusining yangicha talqinlari maydonga keladi. ”Adolat oftobi ”, ”Uyg‘onish zamoni”, “Erk haqqi”, “Oq kabutar” she’rlar ana shulardandir.

“Adolat oftobi” da shoir yurtini, elini mustaqillik bilan muborakbod etadi. Nihoyat ,adolat oftobi porlaganini kuylatdi. Bu asar O‘zbekiston

mustaqil Respublika deb e'lon qilingan, kunda yozilgan va shu kuniyoq Oliy Kenfash minbaridan o'qib berilgan. She'r faqat quvonch va shodliklardan osmonga mushak otish, O'zbekistonni shon-sharaflarga burkash ruhida yozilmagan. Shoir bu mustaqillik osonlikcha qo'lga kiritilmaganini e'tirof etadi. Uni saqlab qolish, mustahkamlash ayniqsa muhimligiga e'tiborini qaratadi. Oldinda hali kurashlar borligini ta'kidlab bu yo'lda hushyor bo'lishga chorlaydi. o

Unutmagin va lekin ,oldda bor holi yotlar.

Qadamingni poylaydi ochko'z ,yunoni zotlar.

Shih kiribsan injima ,g'inshima agar motlar

Yelkamizga oftobning tekkanlari rost bo'lsin

O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.

A.Oripov she'rlarida tabiatga munosabat masalasida fan –texnika taraqqiyoti bilan bog'liq muommalar ham o'z ifodasini topadi. Uning aksar she'rlarida tabiatni e'zozlash muommosi insondagi tabiiy xislatlarni noyob tuyg'ularni asrash, ardoqlash, ehtiyoji bilan qo'shib ketadi. Tabiatga e'tibor tushunchasi ham Vatanga bo'lgan yuksak jonkuyarlikning bir ko'rinishidir.

Yosh shoirlar ijodi uchun haraktirli masalardan biri ularda Vatan bilan Vatandoshlar bilan, qahramonona o'tmish bilan, oliyjanoblik bilan faxrlanish tuyg'usining g'oyat kuchliligidir. Shu samimiy iftixor ular ijodidan qizil ip bo'lib o'tadi.

Chunki dasturin berdi xalqimga buyuk zamon.

Buyuklikdan buyuklik tug'lib kelgan dam

Sen ham shu buyuk elda yashnay ber doim shobon,

Ey, sen azamat xalqim ,ey sen tug'ilgan joyim.

deb yozadi A.Oripov "Qarshi qo'shig'i" she'rida. Yoshlar she'riyatining falsafiy qobiqlarida mana shu ko'tarinki ehtirosli go'yo nur chiziq solib

turadi. Ularni buyuklikdan tugʻiladigan buyukliklar ilhomlantiradi. Buyuklar esa ularning koʻz oʻnglarida oʻzbek xalqi hayotining har bir soniyasida sodir boʻlib turibdi. Hayotning buyuk nafasi ular qalbini hayratga soladi. Larzadagi qalb energiyaga toʻladi, joʻshqin bir falsafa yaratadi.

Yoʻq, halovat istamayman,
Orom bilmas yosh jonim
Talqin urgan ummoncha bor,
Nsurakdagi tuygʻonim

Boʻronlarga, dovullarga
Peshvoz yurgim keladi
Daryolarning girdobiga
Koʻkrak urgim keladi.

Har bir shoir oʻz uslubi, oʻz usuli, oʻzining badiiy mahorati, tasviriy vositalari turli xil boʻlib, sheʼr yozganda oʻz yoʻnalishi uslub doirasidan kelib chiqib yondashadi. Biz buni ustoz shoirlarimizning sheʼrlarida koʻrib oʻtdik.

“Odatda ulkan va isteʼdodli sanʼatkorlarning ,nafaqat butun bir ijodi balki har bir asari haqida oʻnlab yuzlab olimlar fikr bildiradilar. Mabodo ular bir joyga jamlangudek boʻlsa ,ajoyib bir guldasta paydo boʻladi.Undagi bir –biriga mutlaqo oʻxshamagan har bitta gul oʻz rangi va tarovati bilan koʻngilga orom beradi va ijodlar gulzorining turfaligini koʻrsatuvchi fazilatga aylanadi.”¹⁹ Haqiqiy isteʼdodli sanʼatkorlarning ijodiy merosi ummonga oʻxshaydi.Unga shoʻngʻigan gʻavvos nasibasiga yarasha duru javohirlarni terib chuqaveradi. Nazarimda E.Vohidov, M.Yusuf, A.Oripov-larning ijodi ham ana shunaqa ummondir. Nafaqat har bir sheʼri, balki

¹⁹Boltaboyev.H.Soʻz sehri.Toshkent.2006-yil. 131-bet.

undagi satrlari to'liqin urgan, sirlar to'la bir ummondir. Chunki chin ma'nodagi shoir o'z xalqining yurak parchasi hisoblanadi.

Erkin Vohidov o'z ijod namunalarini yaratishda tarix sahifalariga o'z e'tiborini qaratadi. Uni xalqining o'tmishi va buguni qiziqtiradi. Abdulla Oripov she'riyatida kuchli falsafiylik ko'rinib turadi. Ch. Aytmatov aytganidek u o'z davrining kuychisi, jarchishi va faylasuv shoiridir.

M. Yusuf she'riyatida o'zgacha ohang, o'zgacha navo yurtining har bir zarrasida vatanni ko'radi. Samimiy, dilkash, oddiyligi bilan xalqning qalbidan joy olgan.

Bu shoirlarning qaysi bir she'rini yoki dostonlarini o'qimaylik unda ijodkorlar o'z xalqining, millatining fidoiy farzandi sifatida bo'y ko'rsatadi. She'rlarida o'zlikni namayon eta olishda erkin ma'nodagi individual uslubi mavjud. Ular Yurakda qaynab turgan so'zi bo'lmasa qo'lga qalam olmaslikga qasamyod qilgan ijodkorlardir.

II bob. Muhammad Yusuf she'riyatida Vatan mavzusining

yangicha talqini

Menga boqib miyig'ida kulgan dunyo
Meni tuproq o'zin osmon bilgan dunyo
Seni momom cho'miltirgan yuvib tarab,
Seni bobom tetapoya qilgan dunyo

Ey o'tmishdan o'tgan kunin so'ramagan,
O'zbek borsa kim, qo'liga qaramagan.
Botirlari qul bo'ishga yaramagan,
Suluvlari bo'yniga osilgan dunyo.

Moziy manim borimni yod etib siylar
Dilin obod ruhlarin shod etib siylar
Shoh G'azzoliy, shoh Tabriziy, shoh Rumiylar....
Chog'ini yelkaziga ilgan dunyo

Sen sig'ingan o'sha jondir ortiq senga
Tojimahal ham bir bobomdan tortiq senga
Kulma menga iddaolar qilma menga
To'qqiz kunda Temir bosib olgan dunyo

Yuzlaringni yoritgan shu Sharq Ziyosi
Darlaringni aritgan shu Sharq Ziyosi
Sinoning etagin, o'pib Ovrupasi
Amirqosi Beruniydan qolgan dunyo

Mening ko‘shkim ko‘kda unga yetmaydi qo‘l,
Mening ko‘rkim ko‘ngil, unga yetgay bir yo‘l,
Tirikman men, kel istasang murodimbo‘l-
Sen Islomdan iymon darsin o‘rgan dunyo!..²⁰

Ushbu satrlarni o‘qir ekanmiz, yuragida, qalbingning qo‘rida butun borlig‘ida vatanga cheksiz muhabbat, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini tuygan chin vatanparvar shaxs ko‘z oldimizda gavdalanadi: U o‘z xalqini dunyolarga alishmaydi. Sharqning naqadar buyuk ekanligini Temuriylar, Ibn Sino, Beruniylar siymosida izohlaydi. Uning eng katta boyligi mana shu vatan mana shu yurt. Shuning uchun ham uning ko‘ksi osmon, ko‘rki esa ko‘nglidir na shunday iftixor egasi M. Yusuf ijodiy faoliyatining asl o‘zagini Vatan, el yurt, unga muhabbat, sadoqat tuyg‘ulari qmrab olgan.

Muhammad Yusufdek yoshlik yillaridanoq bunchalik ko‘p muxlis orttirgan, do‘st-og‘aynisi bisyor ijodkor kamdan kamdir. Sanatkorlar uning hr bir misrasini sozga solishga tayyorlar.

Bularning sababi nimada? Birinchi, navbatta shoir yaxshi inson edi. Yaxshi insonlarga esa boshqalar hamisha talpinadilar.

Shoir hech qachon obro‘ talashmagan, izzatni so‘roqlab yugurib yurishdan or qilardi. Xuddi shunday yaxshi insongina yaxshi ijodkor bo‘lishi tabiiydir. Shu muhabbat, sadoqat tuyg‘ulari qamrab olgan. Muhammad Yusufdek yoshlik yillaridanoq bunchalik ko‘p muxlis orttirgan do‘st-og‘aynisi bisyor ijodkor kamdan kamdir. Sana’tkorlar uning har bir misrasini sozga solishga tayyorlar. Shu kabi yuksak fazilatlari tufayli Muhammad Yusufni xalqimiz ardoqlaydi. Yurtboshimiz otalarcha mehr ko‘rsatdi. Uning xizmatlrini davlatimiz munosib baholadi va O‘zbekiston xalq shoiri unvonini berdi. Undan chinakam betakror ijodiy meros qoldi.

²⁰ Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent, 2005, 35- bet.

Haqiqiy ma'nodagi barhayotlik, zavol bilmaslik Muhammad Yusuf ijodiga taaluqlidir.

Shoirni biz chindan pokiza inson sifatida ko'rishimiz mumkin. Necha odamlarning esini og'dirgan, o'ylatgan, kuldirgan yig'latgan, topgan tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi.

“Muhammad hammani o'ziga do'st deb biladi. Hech kimni begona qilmasdi. Qo'lida borini do'stlariga tarqatmaguncha, cho'ntagi bo'shab qolmaguncha ko'ngli to'lmasdi²¹” deb yozadi Said Ahmad.

Shoir o'zbekning ko'ksini kuydirgan shoir edi. Xalqona ohang uning satrlarida ajib sado berar edi. Shu bois ham she'rlari qo'shiq bo'lib qanot yozdi. Bu qo'shiqlarda xalqning dardi, orzusi va armoni jaranglardi. Ayni paytda millatning mehri balqib turadi.

Aylanayin qora qosh-u ko'zingdan-a

O'zingan qo'ymasin xalqim o'zingdana.

Bu satrlarni bitgan shoirni xalq hech qachon unutmaydi. Zero Muhammad Yusuf desa har bir dilda “Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston!” degan sado jaranglaydi.

²¹ Ahmad S. Shoir zamondoshlari xotirasida. T. Shaarq. 2005. 274-bet

2.1. Shoir she'rlarida Vatan timsoli

Muhammad Yusuf ozod va obod Vatanini fidoiy bir farzand yanlig' sidqidildan, ko'nglini osmonday keng ochib kuylab o'tdi. O'z xalqini, insonlarini, zarra tomchidan to ummon dengizigacha Vatan deb biladi.

Kinga dasht poshpana, kimgadir gulzor,

Har kiming sig'ingan sajdagohi bor.

Har hovuch tuprog'i ko'zga to'tiyo,

Biz uchun qadrdon shu aziz diyor.²²

Har bir insonning Vatani o'ziga qadrli. Shoir uchun uning har hovuch tuprog'i ko'ziga to'tiyodir.

Shoirning yurtiga bo'lgan izhori dilini bir eshitaylik.

Ko'hna tol beshikdan

Boshlangan olam

Senga iddaolar

Qilmay sevaman.

Bir kuni singlim, deb,

Bir kuni onam-

Vatan

Kimligingni

Bilmay sevaman.²³

Biz bilamizki endigina dunyoga kelgan chaqaloq ulug' onaxonlarimiz tomonidan birinchi beshikka belanadi. Uning uyi beshik hisoblanadi. Ana shunga qiyosan shoir birinchi olam beshikdan boshlanishini ifodalaydi. Ayrim shoirlar bor ekan ular Vatan haqida birorta

²² Muhammad Yusuf. Ulug'imsan Vatanim. Toshkent. O'zbekiston. 2010-yil. 14-bet.

²³ Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent. Sharq 2005-yil 155-bet.

she'r yozish kerak zora mashhur bo'lsa, qo'shiq bo'lsa degan maqsad bilan she'r yozmoqchi bo'lar ekan. Lekin Muhammad Yusuf yurakdan chiqqan satrlarni qog'ozga tushiradi. Yuqoridagidek fikrlovchi shoirlarga.

Vatan desa o'pkang to'lib ketmasa

She'r yozishga balo bormi, birodar!

deya murojaat qiladi. O'z Vatanini iddaolar qilmay sevadi.

Shoir Vatani timsolini singlisida, onasida ko'radi. Shuning uchun ham Vatan kimligingni bilmay sevaman deya takidlaydi.

Ona, buyuklarning eng buyugi, ulug'larning eng ulug'i suyukli zotlarning eng suyuklisidir. Bazan bu so'zga ta'rif berishga ojiz qolasan, kishi. Bu nomga shoir-u yozuvchilarimiz o'z ijod namunalarida munosib baho aytgan allalarchalik, ular bedor o'tkazgan tunlarchalik nazm bitmasligi mumkin, biroq imkon qadar onani vashf etadi. Ana shunday buyuk zot timsolida shoir Vatanni ko'radi.

Menga yering suyuk,

Osmoning suyuk

Boqsam, teng

To'rtala

Tomoning suyuk.

Tovonimga kirgan

Tikoning suyuk-

Kaftdan

Zirapchang ham

Yulmay sevaman

Shoir Vatanini shu qadar sevadiki yer-u osmoni, butun borlig'ini qadrlaydi. Hatto joniga ozor yetkazuvchi tikanni, zirapchani e'zozlaydi.

Bu yorug‘ jahonda
Yo‘g‘u borimsan,
Tilimning ostida
Novvot- zarimsan.
Sen mening yagona
Payg‘ambarimsan
Men Bilol,
Men Habash –
Qulday sevaman.²⁴

Ushbu misralardan ham ko‘rinib turibdiki, shoir Vatanni dunyodagi boru yo‘g‘iga, tilining ostidagi navvotga, zarraga qiyoslaydi, yagona payg‘ambarim deb atab uni bir habash qulday sevishini e‘tirof etadi. Mana bu chin insonning Vataniga atalgan dil so‘zlaridir.

Shoir Muhammad Yusuf qalami bitgan, Vatanga bag‘ishlagan o‘tli misralari kitobxon nazdida, shoir siymosida chaqmoqdek yonib o‘tgan shoir-u betakror she‘riyat doim xalq ardog‘ida bo‘lajagiga umid bilan boqishga chorlab turaveradi.²⁵

Vatan madhi uchun so‘zni qurol qilgan shoir Muhammad Yusuf xalqi va jonajon vatanining ertasi bilan kun-u tunlarni o‘tkazgan. Uning Vatan madhiga bag‘ishlangan, she‘rlarida Vatan obrozi shunday tasvirlanganki, uni o‘qiganda shoirning qalbi ona yurt siymosi sifatida shoirning umr va ijod yo‘lini yoritib, istiqbolga chorlab, “bag‘rida yuz mingta quyosh porlagan” ezgu kunlardan bashorat berib turadi.²⁶

²⁴ Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent. Sharq 2005-yil 155-bet.

²⁵ Muhammad Yusuf. Xalq bo‘l, elim! Toshkent. O‘zbekiston. 2005-yil 9-bet

²⁶ I. Haqqul “Mushohida yog‘dusi”. Toshkent; Fan nashriyoti. 2009-yil. 26-bet.

Shoir she'rlarini o'qir ekanmiz, xoksor, mehnatkash elini, ulug' Vatanini o'ziga xos, hammaga tushunarli qilib tarannum etganini guvohi bo'lamiz.

Oftob kelin tushgan bog'laring ko'rkam
Yalpizlar yastangan dala dashtlarining
Osmonga tutashgan oqterak o'lkam,
Ko'nglimda o'zgacha sayru dashtlaring
Vatan, qadrim uyi-xonaqohimsan,
Bobolarim yotar sajdagohimsan.

Vatan haqida juda ko'p shoirlar she'r bitgan. Lekin "Osmonga bo'y cho'zgan oqterak o'lkam" deyishning gashti o'zgacha.

Yuqoridagi misralarda shoir Vatanini bobolarim yotar sajdagohimsan deya tilga olgan bo'lsa, "Quyoshistonim" nomli she'rida ham ajoyib manzarani tasvirlaydi.

Kohinurdan ko'hligim,
Onam – O'zbekiston.
O'zbekman, O'zbekligim,
Mening oliy unvonim.

O'zbekiston shoirning onasidek muqaddas. Muhammad Yusufning Vatan haqidagi hamma she'rlari ona haqidadir. Ona haqidagi barcha she'rlari ayni paytda Vatanga bag'ishlangan. "Kimda g'am ko'p bo'lsa – u mening onam!", - deydi yana bir she'rida. O'zbekligim oliy unvonim jumladan esa shoirning xalqining asl fidoyisi, jonkuyar shoir ekanligiga yan bir bor amin bo'lish mumkin.

Muhammad Yusuf mustaqillik yillarida barakali ijod etdi. Ular orasida Vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan she'rlari alohida ahamiyatga ega Abdug'afur Rasulov shunday yozadi. Istiqlol davrida yurtda qanchalar

yo‘l-u ko‘priklar solingani yanglig‘, necha aziz-avliyolarning yotar makonlari obod etilib, yana qanchalar muhtasham, muazzam binolari tiklangani misol. Adabiyotimizda, she‘riyatimizda ham bu yillar nurli izlar qoldirdi. Ustozlar izidan, ular bilan yonma-yon Muhammad Yusuf ham ta‘bir joiz bo‘lsa agar, o‘z she‘rlari bilan nurli ko‘priklar solib, yorug‘ yo‘llar ochadi. U o‘z diyorini o‘zgacha bir zavq bilan kuyladi.

Odam bilan ulg‘ayar makon
Dunyolarga doston bo‘ladi.
Erkli elning go‘dagi sulton
Sultoni mard o‘g‘lon bo‘ladi.
Dahri dun hammadan qoladi,
Bizdan ozod Vatan qoladi.

Darhaqiqat, bizdan ozod va obod vatangina meros bo‘lib qoladi. Bu fikrni hatto, prezidentimiz ham o‘z so‘zlarida bot bot ta‘kidlab o‘tadi. Shoir Muhammad Yusuf she‘riyatida ham Vatan mavzusi ko‘p va xo‘p tilga olingan. Ijodida soddalik, jaydarilik yaqqol sezilib turadi.

Qalamkash haqidagi eng yaxshi gapni uning ijodi aytadi. Muhammad Yusuf she‘riyati to‘g‘risida ham shunday desa bo‘ladi.

Shoirning bir qaraganda soda bo‘lib koringan misralari mushohida qilsangiz, xalqiga aytmoqchi bo‘lgan gaplari, iztirobli mushohadalarini misralar qatiga joylab yuborgan, fidoiy ijodkor qiyofasini ko‘z oldingizga keltiramiz. Sirojiddin Sayyid shoir haqida fikr bildirar ekan: “uning she‘ri soda edi. O‘zbek dalasining tuprog‘iday jaydari edi. Sodda mehnatkash elini, ulug‘ Vatanini o‘ziga xos hammaga tushunarli qilib kuyladi.

Qizg‘aldoqday sevgisi, kapalakday muhabbatini shabnamga cho‘mgan maysalar yanglig‘ toza va beg‘araz aytib o‘tdi. Ijodkor she‘rlari qalblarga darhol yo‘l topadi. Shoirning Vatan haqidagi qarashi, unga bo‘lgan

muhabbati “Vatanni seving” sarlavhali she’rida nihoyatda tiniq, avj pardada ifodalagan:

Kimlardir kaftida gul ushlab yurar,
Kimlardir qo‘lida palaxmon toshi.
Chayqalib turganda dunyo guldirab,
Yurtning poyidadir yigitning boshi.
Sevsangiz avval shu Vatanni seving,
So‘ng shahlo ko‘zu gulbadanni seving!

Ushbu satrlar ulkan mahorat milliy o‘ziga xoslik o‘z Vataniga bo‘lgan alohida muhabbat bilan hurmatga sazovor.

Muhammad Yusuf o‘ylovchi so‘zni, o‘rni o‘rniga qo‘yib qo‘llashni biladigan san’atkor. Uning she’rlaridagi so‘zlar jilovlanib, kuy taratib turadi.

O‘zbek she’riyatida hech kim Vatanini Zahiriddin Muhammad Boburdan so‘ng Muhammad Yusufdek yonib kuylamagan. Shoir hech qachon mukammal jumlar tuzishga urinmaydi. Kundalik lug‘at boyligidagi oddiy so‘zlardan foydalanadi. Shoir Vatan timsolini atrofidagi har kunda va har narsada ko‘rganicha aytadi: Vatan nolon kunida yupatgan singil, ona, kambag‘al hamxona, o‘g‘lim deb bosh egib turgan chinor ota, tarix dashtida ochilmagan bir qoriq va bu qoriqdagi Shiroqlarni ko‘rgan Cho‘pon – cho‘lig‘-u, tarqab ketgan to‘qson olti urug‘, hatto, g‘ichir-g‘ichir tishidagi so‘lig‘i. u Vatanni Vatan bo‘lgani uchun sevadi. Bu sevgida izoh yo‘q, unga sabab, vaj karsonlar axtarmaydi. Sabablarga bog‘langan sevgi ta’malardan xoli bo‘lmaydi. Shu bois bir kuni singlim deb, bir kuni onam deb – Vatan, kimligini bilmay sevadi.

Ijodkorning “Vatanim” she’rini olib qaraydigan bo‘lsak bu she’r asosida yaratilgan qo‘shiqni eshitmagan, uni xonandaga jo‘r bo‘lib birga aytmagan yurtdoshimiz” kam topiladi. Bastakor she’r matniga – mazmun

mohiyatiga shunchalar mos ohangdosh musiqa topganki, go‘yo shoir oldindan u musiqani xirgoya qilib ashor bitganday she‘rdagi mazmun va ohang rivoji musiqada ikkinchi umrini boshlaydi, xonanda ovozi goh kuchayib, goh pasayib o‘zbekning tarixiy ko‘tarilish va tanazzul bosqichlarini ifoda etadi.

Aslida Vatan to‘g‘risidagi, yurtimiz tarixida o‘tgan ulug‘lar nomlarini birma-bir sanab, moziyda bo‘lgan voqealarni eslab, ularga hamd-u sano aytish tarzida yozilgan she‘rlarning soni bor-u sanog‘i yo‘q. Ularning deyarli barchasida Amir Temur, Manguberdi, Navoiy va Boburlar, Cho‘lpon va Fitratlar albatta tilga olinadi. Hammaga ma‘lum sifat va o‘xshatishlar orqali ular ulug‘lanadi. Biroq nima uchun ularning birortasi Muhammad Yusuf she‘ri singari mashhur bo‘lmadi. Nega bu she‘riy tizmlar millionlar ko‘ngliga jonli his bo‘lib ko‘chib o‘tmadi?

Demak Vatan haqida kuylash ham har xil bo‘lar ekanda. Bu she‘r-u qo‘shiqning ham samimiysi, yurakdan chiqib yurakka boradigani va aksincha ta‘sir qiladigani bo‘lar ekan-da.

Muhammad Yusufning Vatanim she‘ri xuddi shunday yurakdan chiqib yuraklarga jo bo‘lgan qo‘shiqdir. Vatan timsolining yorqinroq ifodasini “Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor... she‘rida kuzatishimiz mumkin. Bizga ma‘lumki o‘zbek xalqi dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biri sanaladi. Va bu xalq tarixda misli ko‘rilmagan hodisalarni boshdan kechirgan. Ikki daryo oralig‘ida joylashgan, zamin hosildor, xalqi mehnatkash, o‘troq madaniyatning noyob namunalarini yaratgan bu diyorga kimlarning ko‘zi kuymagan deysiz. Bosqinchi ketidan bosqinchilar kelib bu go‘zal yurtni xarob qilishga urinadi.

Xalqimizning misli samandar (olovda tug‘ilib, olovdan omon chiqadigan afsonaviy qush) dek barcha sinovlardan omon chiqdi, sharaf

bilan chiqdi. Biroq bu kurashlar ozodlikka bo‘lgan intilishlar albatta, qurbonsiz, yo‘qotishlarsiz kechmadi. Millatning ne-ne bahodirlar, yurt ozodligini har narsadan ustun bilgan xalqning asl farzandlari shu kurash maydonlarida jon berdilar. Guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, yov kelganda o‘zini chetgan olgan, joni shirinlik qilib sha‘nidan kechgan, hatto do‘stlarini sotgan kimsalrni ham, afsuski tarix yoddan chiqarmaydi. Ularning kirdikorlari tufayli yurtning ado bo‘lmas armonlari, toshlarni yig‘latgan dostonlari” paydo bo‘ldi:

Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig‘latgan dostonlaring bor,
O‘tmishingni o‘ylab og‘riydi jonim
Ko‘ksing to‘la shahid o‘g‘lonlaring bor.

Mana shu o‘tmishni o‘ylamaslik, bilmaslik, his qilmaslik mumkin emas. Xotira qachon bizga ko‘makka keladi, ertangi kun uchun xizmat qiladi? Qachonki, u uyg‘onsa, anglansa va his qilinsa!

Ayniqsa, sobiq sho‘ro davrida yurtimiz va yurtdoshlarimiz boshidan kechgan musibatlarni unutishga hech kimning haqqi yo‘q “Qora ko‘zlarin tug‘ilmay qolgan farzandlari emas, balki olis Sibir o‘rmonlaridagi “Qayinbarglar yopgan” Usmon Nosirning ham xuddi siz-u bizdek yashashga haqqi bor edi. Uning ham joni sabl emas edi. Afsuki....

Qo‘ling qadog‘iga bosay yuzimni
Onamsan-ku og‘ir olma so‘zimni
Qayinbarglar yopib qora ko‘zini
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Aksuski, o‘zimizdan chiqqan sotqinlar, mehrobga in qurgan chayonlar Usmon Nosirning ham, Abdulla Qodiriyning ham, Cho‘lpon va Fitratning ham umriga zomin bo‘ldilar.

Alhazar, alhazar ming bor alhazar
Ana yurishibdi kiyganlari zar
Qodiriyni sotib shoir bo‘lganlar.
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor.²⁷

Albatta, bugun bir millat vakillarining bobolari hayotida yo‘l qo‘ygan xatolari tufayli bir-birlarini qoralab o‘tish mavridi emas. Lekin bu degani , “O‘tgan o‘tdi – ketdi”, qobilida ham tushunilmasligi lozim. Shoirning istagi- bugungi va kelgusi avlod bu o‘tmishdan saboq chiqarsin, ertaga bo‘ladigan ming turli hayot sinovlariga tayyor tursin!

Shundagina millat millat bo‘ladi, xalq chinakam xalq bo‘ladi. Shundagina odamlar ruhiyatidan yomolik hissi chekinib, chinakam shaxlar shakllanadi.

Qurboning bo‘layn, ey onajonim,
Sening faryodalring- mening fig‘onim,
O‘tmishingni o‘ylab qiynalar jonim
Aytsam ado bo‘lmas dostonlaring bor.

Shunday ulug‘ zotlarning necha yillik zahmatlari evaziga yurtimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Yurtimizning mustaqillikga erishgani Muhammad Yusuf ijodida yangi ufqlarni ochdi. Uning millat va yurt istiqloli sharafiga bitgan go‘zal she‘rlari o‘zining samiyimiyliigi, soddaligi, badiiy mukammalligi millionlar qalbida aks sado beradi. Shoirning “Vatanim”, “Xalq bo‘l elim ”, “Dunyo”, “Inshoolloh”, “O‘zbek momo”, “Iqror”, “Tilak” kabi o‘nlab she‘ralri chinakam she‘riyat yurtni qanday kuylamog‘I lozimligini isbotlagan asarlar bo‘lib qoldi. Istiqlol yillarida erishgan yuksak ijodiy yutuqlari uchun Muhammad Yusufga 1998-yida “O‘zbekiston Xalq shoiri” unvoni berildi.

²⁷Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent, Sharq, 2005, 46-bet.

2.2 Shoir she'riyatining yosh avlodda Vatanparvarlik hissini shakllantirishdagi ahamiyati

Adabiyotshunos H. Umirov M.Yusuf ijodi haqida shunday fikrlarni bildiradi “Jonliligi bilan maftun etuvchi, ohangi bilan dilni qitiqlovchi bo‘lgani sabab bir zumlik harorat bilan uzoq yillarni, umrlarni” isitadi, boyitadi, orzularga qanot beradi, ishonchlarni mstahkamlaydi.”²⁸

Haqiqatdan ham M. Yusuf jodining mahsuli har bir she'rida insonga Vatan nima, vatanga muhabbat nima ekanligini ko'rsatadi. Haroratli satrlarida o'zbek elining kimligini anglatadi. Butun xalqining farzandiga g'urur, iftixor tuyg'ylarini tuyishga undaydi, ularni ham Vatanga sadoqat vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

O'zbekiston dunyoda tanho yer-uosmoni, tabiati, tuprog'i, quyoshi-barchasi bebaho, ardoqqa munosib edi, ammo shoir uchun hamma narsadan azizi shu zaminda yashaydigan ona xalqi-ona yurti. Shoir ayni shu ona xalqining farzandi. Farzand uchun esa onaning boy yoki kambag'al, go'zal yoki xunuk, qaysi millat, qaysi dinga daxldorligi ahamiyatsiz: faqir-u haqir, ko'rimsiz, dardmand ona bag'ridagi bolakayni tortib olib, badavlat ko'rkam farishtadek ayol qo'lig tutqazsangiz “dod” deydi faqir, ko'rimsiz bo'lsada, o'sha o'z tuqqani bag'riga talpinadi. Shoir barcha she'rlarida o'zbekligimizni anglatadi. “O'zbek” she'rini o'qiganimizda biz o'zligimiz qanday ekanligini bilib oamiz.

O'zbekka o'xshatish topmoq muammo
O'xshasa o'ziga o'xshaydi o'zbek
Qiyosi yo'q uning, mehri bir daryo
Dunyoda bolam deb yashaydi o'zbek.

²⁸ Boltaboyev H. So'z sehri. Toshkent. 2006-yil. 131-bet.

O‘zbekni shunday ta’riflaydiki, dunyoda unga o‘xshashi topilmaydi. O‘zbek bolajon xalq degan jumlani ko‘p eshitganmiz. Shoir ham o‘z misralarida uni aks ettiradi. Bizning mehnatkash xalqimiz har doim go‘zalliklar yaratishga mushtoq, samimiy, mehridaryo xalqligini ifoda etadi. Farzandga mehr tuyg‘ulari har bir o‘zbekning qon qoniga sin ekligidan faxrlanadi gib ketgan.u o‘g‘lini otashidan yaralgan uchqun deb biladi, qizini parilardanda chehras gulgun deb ardoqlovchi, bir umr bolam deb yashaydigan o‘zbekni ta’riflaydi. Xalq orasida shunday gap bor. Inson yoshlik davridan o‘tib umrining eng gullagan davri yigirma yoshlarda mustaqil hayotga qadam qo‘yadi. Farzand ko‘radi, turmush tashvishlari bilan,bola tarbiyasi bilan shug‘ullanadi, qirq yoshgacha farzandlar bilan ovora, qirq besh yoshida buvi, bobo b’ladi. Mevasidan mag‘izi shirin deganidek ularning ham tashvishlari bilan oltmish, yetmish yoshlarni qoralab qo‘yganini o‘zlari ham bilmay qolishadi, shunda o‘zida savol tug‘iladi ozim uchun ham yashadimmi? O‘zbek ana shunday butun umrini farzandinng kamoliga etadi. Shoir ana shunday bolajon xalqni kuylaydi. O‘zining o‘zbek ekanligidan faxrlanadi. O‘zbekman she’rning misralarga e’tibor bering.

Oq yaktagi yanglig‘ oppoq murodi,

Har yaxshiga joni qurbon o‘zbekman.

Nasli ulug‘ sohibqiron zuryodi

Dovro‘g‘i dunyoga doston o‘zbekman.²⁹

O‘zbekning niyati toza hech qachon yaxshi insonlarga yomonlikni ravo ko‘rmaydi.

O‘zbekning qanchadan qancha ulug‘ siymolari, yaxshi ishlari bilan dunyoga nom taratgan. Navoiy, Mashrab, Fuzuliy, Nodira, Uvaysiy, Lutfiy

²⁹ M.Yusuf.Ulug‘imsan Vatanim.Toshkent.O‘zbekiston.2010-yil 75-bet.

tanlagan yo‘lingdan, o‘z so‘zingdan qaytma. Barcha niyatinga erish deya xalqini birdamlikka chaqiradi. Ortga qaytmasdan ozodlik uchun, el tinchligi uchun xalq bo‘lib birlashishga undaydi. Bu chin vatanparvar shaxsning jonkuyarlik, fidoiylilik ifodasidir.

Biz bilamizki har bir millatning kelajagi qanday bo‘lishi ularning yosh avlodiga bog‘liq. Bugungi avlod o‘tmish tariximizga nazar tashlab, kuch, adovat bilan hech narsaga erishib bo‘lmaligi aksincha juda ko‘p yo‘qotishlar yuz berishini yaxshi anglab yetgan. ana shunday qiyin vaziyatlar yo‘qotishlar girdobida qolmaslik uchun bugun biz kuchi, bilimiga ega bo‘lgan, bugungi zamon talablariga javob bera oladigan, har qanday vaziyatarda bemalol to‘g‘ri yo‘lni topa oladigan mustaqil yoshlarni tarbiyalashimiz kerak. buning uchun ko‘pa o‘qib ko‘proq izlanishlari ham manan, ham jismonan komil inson bo‘lishlari uchun avvalo bugungi ularganga yaratilayot imkoniyatlardan samarli foydalanishlari lozim. shoir yoshlarga shu maqsadda murojaat qiladi. Ularni ajdodlariga munosb alod bo‘lishlarini, O‘zbekiston deya atalmish jannatmakon yurt dovrog‘ini dunyoga doston qilishlarini yuragidan xohlaydi.

Shuning uchun yoshlarga

Alp o‘g‘lonlar o‘lkasi bu ko‘hna turon,
Qalqonlari, qanotlari ilm istang
Yarim jahon bunyod etgan sohibqiron,
Alisherning avlodlari ilm istang.
Ilm istang izingizdan ibrat yog‘sin
Ixlosingiz shaxdingizdan shiddat yog‘sin.
Ortingizdan mag‘rur mag‘rur millat yog‘sin
Mulki turon najotlari ilm istang.³⁰

³⁰ M. Yusuf. Ulug‘imsan Vatanim. Toshkent. o‘zbekiston. 2010-yil. 27-bet.

Shoir o‘z yurtiga chin sodiq o‘g‘il bo‘lishni istaydi ”chamaniston” she’rida buni badiiy mahorat bilan aks ettiradi. Shirmoy non-u, to‘marisdek qizlarini, Alpomishdek o‘g‘illarini iftixor bilan tilga oladi.”Do‘ppi” ”Belbog‘” she’rlari orqali bizning o‘zligimizni yana bir bor namoyon etadi. Polvonlariga Pahlavon Mahmudlar ruhi qo‘llasin sizni deya omad tilaydi. Yursa izlaridan oftob ergashuvchi o‘zbekmomolarini qadrlaydi. Yuzlaridan nur taraluvchi, suvdan halol, guldun pok, qo‘llari oltin yo‘llari oltin munis ayollarini madh etadi. Iqror she’rida

O, ota makonim,
Onajon o‘lkam,
O‘zbekiston, jonim to‘shay soyanga,
Senday mehribon yo‘q seningdek ko‘rkam
Rimni alishmasman bedapoyanga.

Ota ona inson hayotida eng birinchi mehrini tuygan eng muqaddas insonlar. farzand uchun ota onadan ulug‘roq zot yo‘q. Shoir yurtini ota makonim jonajon o‘lkam deya ta’riflaydi. ota ona farzandini qanday e’zozlaydi, ko‘zining qorachig‘idek asraydi. Shoir Vatanni ana shunday buyuk zotlarga qiyoslaydi.

Dunyoda dovro‘g‘ ketgan qandaygo‘zal makonlar bor , ko‘p insonlar bir ko‘rishga mushtaq noyob maskanlar bor lekin ular har bir insonning o‘z yurti Vatandek bo‘la olarmikan albatta yo‘q. M.Yusuf uchun o‘z yurtidan muqaddasroq maskan yo‘q, shuni uchun u o‘z yurtining bedapoyalariga hattoki Rimni alishmaydi. Parijning eng go‘zal restaranlarini bitta tandiriga alishmasligini takidlaydi.

Bildimki, baridan ulug‘im o‘zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga.

Bahorda bahmalda tugʻilgan qoʻzing
Arab ohusidan azizroq menga.

Sen bilan oʻtgan kun har kuni bayram
Sensiz bir on qolsam vahmim keladi
Seni bilganlarga qilaman tazim
Seni bilmaslarga rahmim keladi.³¹

Ushbu misralarida uning uchun hamma narsadan buyugi Vatan tuprogʻi ekanligiga.

Shoirning ajdidlarimizga, oʻtmishimizga bazida faxr, gʻurur, bazida esa achinish, afsus bilan yozilgan sheʼrlari ham talaygina. Ulardagi maʼno, ulardagi mahzunlik oʻquvchini oʻyga chuʻmdiradi. Kitobxon oʻzini ham bevosita ogohlikka davat etilayotganligini sezadi, his etadi.. Shoir sheʼrlarida moziyda oʻzbek xalqi orasidan chiqqan laganbardor kimsalarni tanqid ostiga olib, ularning tushunib tushunmay qilgan xatolari tufayli oʻzbek xalqining boshiga ne ne kulfatlar tushganligini kuyunib soʻzlaydi.

U ham farzandidir bittfa insonning,
Bilmoqchi boʻlsangiz qabri qayda deb
Laganbardorlardan soʻrang choʻlponning....
Otabek Kumushni koʻzlarin yopib
Oʻzi ham ortidan qilgach safarlar
Qodiriy boboning qoʻllarin oʻpib
Chohga itargan ham laganbardorlar.³²

M.Yusu ijodida sogʻinch mavzusi ham keng oʻrinni egallaydi uoʻz tugʻilib oʻsgan goʻshasini bolaligini, borliq tabiatni, vodiy quchogʻini butun umri davomida kuylaydi.

³¹M.Yusuf. Saylanma. T.Sharq. 2005-yil. 120-bet.

³²M.Yusuf.Saylanma. Toshkent. Sharq. 2005-yil. 66-bet.

Toshganda... to'g'larni sog'indim,
Yashil o'tloqlarni so'indim.
Suv bo'yida chordona qurgan,
Momoqaymoqlarni sog'indim.
Kechagina yomg'irda ivib,
Yura edim kapalak quvib.
Shudringlarga yuzimni yuvib...
Bolalik chog'larni sog'indim.³³

M.Yusuf lirikasida onaga, uning mehriга bag'ishlab yozilgan she'rlarni ko'p uchratamiz. Ona sog'inchi ijodkorga tinchlik bermaydiva takror va takror qog'oz qalamga murojaat etib, o'z hissiyotlarini, ichki tuyg'ularini yozishda davom etadi.

Men sizni o'ylayman shom-u saharda,
Ona sog'insam ham bora olmayman.
Tunlari charog'on shunday shaharda,
Hech kimga ko'nglimni yora olmayman.

M Yusuf she'rlari ana shunda uy rang barangligi bilan ham kishini maftun qildiruvchudir.

Shoir ona diyorimizdagi har bir o'zgarishga, uning tabiati, insonlariga hamisha mehr bilan qaradi. Hech bir yangilikka befarq qaramasdi. U yurt go'zalligini, tabiatini qolaversa har bir giyohini ustalik bilan o'z so'zlari orqali tarannum etdi. Misol tariqasida. M.Yusuf "Jayron", "Bulut", "Qizg'aldoq", "Vatanim", "Kapalaklar", "Erka kiyik", "Kuzda ketgan turna", "Do'ppi" kabi she'rlarini olaylik, ushbu she'rlarida shoir insonni bir biriga naqadar bog'lik ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shoir

³³Shu kitob 54-bet.

o‘zbek millatini ko‘klarga ko‘taradi, tabiat va insonni hamisha bir butun tasvir etadi.

M.Yusuf lirikasida kinoya ohangida hazil tariqasida yozilgan she’rlari ham ko‘p uchraydi. Shoir o‘z ijodida mavzu tanlashda ham alohida did bilan yondoshgan deya olamiz, chunki M.Yusuf she’rlarini o‘qiganimizda zerikmaymiz. Balki tobora qiziqishimiz ortadi. Shoir ona yurtimizni uning istiqbolini o‘zgacha ehtirom bilan tarannum etadi. Uningshe’rlari kuchli bir yurak to‘lg‘og‘i bilan qog‘oz yuzini ko‘rgan chunki she’r o‘quvchi tasirlantira oladi, kitobxonni o‘zligini anglashga, milliy qadriyatlarini, elini sevishga uning uchun, jon fido qilishdek vatanparvarlikka uddaydi. Shuning uchun ham u vatandan ayri yashab bo‘lmas, vatandoshlar o‘zgalardan albatta aziz, Vatanning har bir giyohi muqaddas. Yurtini sevganlar buni tushunadilar.

Har kimsaning o‘zin bno‘lsin boshpanasi

Har kimsa o‘z kulbasida davrin sursin.

Odanniku aytmay turing bu dunyoda

Hatto qushning yot butoqda ini bo‘lsin.

Bu to‘rtliklarga ajoyib bir haqiqat singdirilgan. Birinchi va ikkinchi misralarda ezga bir tilak bildirilgan bo‘lsa keyingi misralarda hayotiy misol qo‘llanilgan. Yod bir inda qush ham hayot kechira olmasligi , yashagan taqdirda ham unaqa kunning o‘tganidan o‘tmagani afzal deyilmoqda. Dunyoda tirik jonzotlar uchun ham erkin va ozod yashash haqiqiy baxtdir. Erkinlikda hayot kechirish ulug‘ bir ne‘mat ekanligini mohirona tarzda ifoda ettirilgan.

Bazida shoir aytganidek Vatanimizda Vatansizdek yashagan davrlarimiz bo‘lgan, shoir o‘z yurtida turib xor qilingan xalqning xor

bo'lgan huquqlarini istirob bilan tilga olgan. Tilak she'rining keyingi baytlarida ko'tarinki kayfiyat bilan dil izhorlari bildirilgan.

O'z uyingda hushing, o'zing chog'la
O'z qo'lingda endi qushing o'zing ovla,
Oltinlaring tirnoqlaring bilan kovla,
Va yig'ib qo'y bolalaring uchun tursin.
Tili chiqmay ko'zi chaqnar hur o'zbeklar'
Davlatbeklar, E'tiqotbek, Iymonbeklar,
Bobojon deb soqollaring silab tursin,
Men bu she'rni tipganim yo'q atay o'ylab,
Men she'r yozdim gurkiragan yurtga bo'ylab,
Shunday yurtni xudoyimning o'zi qo'llab,
Shunday yurtni xudoyimning o'zi asrab yursin.³⁴

Shoir she'rida O'zbekistonni bir uy deb olish bilan birga unda yashayotgan kishilarni erkin ekanligini o'zgacha faxr maroq bilan kuylagan. ana shunday o'z uyida hur, ozod, erkin qush bo'lib kun kechirayotgan insonlarga bundanda yorug' kunlarni ollohdan so'ragan. Kelajakda tug'iladigan farzandlarga iqbol tilagan. Bu yurtga endi faqat to'ylar yarashishini qayd etgan .o'zbekiston unga yarashib turgan istiqlol va yorqin istiqbolni xudoning o'zi asrasin deya duolar qilinmoqda.

Yana bir bor aytishimiz mumkinki M.Yusuf she'riyatida istiqlol va ona yurt talqini misli ko'rilmagan darajada madh etilgan. U o'zi tig'ilib o'sgan vohasiga ham qator va qator baytlar bitgan o'z go'shasiga sajda qilgan, qulluq qilgan.

Nechun qulluq qilmay Andijonga men
Shu yurtda tug'ildim, shu yurtda o'sdim.

³⁴M.Yusuf.Ulug'imsan Vatanim.T .O'zbekiston. 2010-yil. 11-bet.

Agar do‘stim bo‘lsa bitta udo‘stim’

Nechun qulluq qilmay Andijonga men.

Anchadan beri yoshlar gimniga aylanib kuyga solingan, eshitsak vujudimiz baxt bilan yengil titroqqa to‘ladigan go‘zal bir qo‘shiq bor. Bu qo‘shiqning matnini ham M.Yusuf yozgan she‘rning nomi”Tavallo” deb ataladi. Bu she‘r har bir o‘zbek farzandi so‘z bilan ta‘rif etolbaydigan tuyg‘usini qog‘ozga tushira olgan.shuning uchun ham bu she‘r sevib kuylab kelinmoqda.

Oq yo‘rgakga o‘ragansan o‘zing bizni,
Ham yuvib, oq taragansan o‘zing bizni
Beshigimiz uzra bedor ona bo‘lib,
Kunimizga yaragansan o‘zing bizni
Fidoying bo‘lgaymiz seni O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz ,seni O‘zbekiston.

Yurtimizni hech kimga berib qo‘ymaymiz. Bu nido bugungi kun yoshlarining jarangli ovozidir.shoir yozganidek bu yurtning Alpomishlari bor ularning nasli esa davom etaveradi.

Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joninga,
Alpomishlar ruhi yor har o‘g‘loniga.
Asragaymiz giyohing ham gilday o‘pib,
Yovlar yaqin yo‘lamagay qo‘rg‘oniga.
Adoying bo‘lgaymiz seni O‘zbekiston
Hech kimga bermaymiz seni O‘zbekiston.

Shoir she‘rining davomida yurtfurushlar taqdiri hamisha qanday yakun topishini she‘riy baytlarda bayon qiladi. Bu misralarni o‘qigan har bir yosh avlod esa, Vatanga yanada kuchliroq mehr bilan tarbiyalanadi.

Tuzing tatib, unutganlar xor bo‘ladi,
Ko‘zlariga ikki dunyo tor bo‘ladi,
Shodon daming ko‘rolmagan yurtfurushlar,
Bir kun bir kaft tuprog‘inga zor bo‘ladi.
Yoningda turgaymiz, seni O‘zbekiston
Hech kimga bermaymiz seni o‘zbekiston.

She’rni e’tibor bilan o‘qisak oxirgi misralarda bir gapni takror qo‘llanilganini guvohi bo‘lamiz “hech kimga bermaymiz seni O‘zbekiston” birgina shu ahdning zamirida olam olam ma’no mujassamlashtirilgan.vatan barchamizniki bu hayqirik esa, hammamizning yuragimizdan chiqadiga so‘zlar ona zaminni asrash esa, shu aziz tuproqning har bir farzandi uchun eng birinchi galdagi vazifadir.

M.Yusuf she’rlarida o‘zini Vatanning bir maysasiga qiyoslaydi.

Tuprog‘i jannatdek qilguvchi g‘amza,
Men o‘sha yam yashil vodiyan maysa.
Ming jonim sadag‘a bitta jilmaysa,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.

Shoirning bunday kamtarona so‘zlari uning yurtiga bo‘lgan ehtiromi benazir ekanligidan dalolat beradi. Shoir oz yurtdoshlarini,birdamlikka chorlaydi,xalq bo‘lishga undaydi. O‘z erkiga erishgan yurtga endi qadim navolar qaytishi kerakligini, azaldan bir mayizni qirqqa bo‘lib yiydigan xalq bundan keyin, hamjihatlik shqrt ekanligini, bobolar ruhini shod etmoqlik yakdillikga bog‘liq ekanligini tarannum etadi.

Bo‘lar elning bolalari bir birin der,
Bo‘lmas elning bolalari bir birin yer.

Bir bo‘l endi qaddingni ker,
Xalq bo‘l elim, xalq bo‘l elim, xalq bo‘l elim.³⁵

Ushbu she‘rdagi so‘zlar juda tasirli, badiiy bo‘yoqdorlik meyorida, mano mohiyati esa undanda go‘zal.

Dunyoga boq qaddi sendek kim bor yana
Dovrug‘i ham dardi sendek kim bor yana,
Xalq bo‘lishga haddi sendek kim bor yana
Moziyni yod etay desang xalq bo‘l elim.

Shoir birrdamlikda hikmat ko‘pligini tafsif qila olgan. Yurtning mustaqilligini saqlab qoladigan kuch bu xalqning jipsligida ekanlik g‘oyasini she‘riy satrlarida aks ettirdi. Bu chin vatanparvar insonning dil navolri ortidagi barhayot umr mazmunidir.

Shoirning bizga qoldirgan adabiy me‘rosi, yodgorligi asrlar osha yurtimizga xizmat qilishdada davom etadi. Kelajak avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda buhim ahamiyat kasb atadi. Uning she‘rlari also o‘z qimmatini yo‘qotmaydi. She‘rlarida shoirning o‘zi ham abadiy yashaydi.

³⁵Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent, 2005 9-bet

XULOSA

Lochin netar ko'kda ko'zi o'tmasa,
Sindir qalamingni so'zi o'tmasa
Vatan desa o'pkang to'lib ketmasa
She'r yozishga balo bormi birodar.

Ana shu misralarni umrining mazmuniga aylantirgan samiyimiy shaxsiyat egasi shoir M.Yusufning ijodiy faoliyati, she'riyati bilan yaqindan tanishib adabiyotimiz tarixida o'ziga xos takrorlanmas she'riyat yaratganligiga yana bir karra amin bo'lamiz.

Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki, ma'naviy meros madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ana shu ma'naviy merosimizga, muqaddas tuprog'imizga sodiqlik hissini uyg'otishda Muhammad Yusuf she'riyatining o'rni nihoyatta katta. She'riyatda xalqona ohanglarni yoza olish adabiyotimizda o'ziga xos fazilatlardan biri hisoblanadi. Chin iste'dod egalarida bunday fazilatlar mujassamlashgan. Iste'dodli shoir she'riyati ulkan bir ma'naviyat va ma'rifat dengizidir. Bu dengiz barkamol avlod tarbiyasida muhim sanalgan eng zaruriy fazilatlar, qadriyatlar va ananalar bilan boyitilgan.

M.Yusuf o'zbek adabiyoti uchun o'ziga xos ijod maktabini yaratdiki, bu maktab xalqimiz tomonidan qizg'in qarshi olindi. Xalqchil ohanglarga yo'g'rilgan bu maktab davr muhitini yorib o'tib, xalqimiz qalbiga yetib bordi va elimizning eng ardoqli ma'naviy xazinasiga gavhar bo'lib qo'shildi. M.Yusuf so'zi bilan ishi bir bo'lgan buyuk ijodkor edi. U nimani yozgan bo'lsa hayotta ham yozganlariga amal qilib yashaydi. Pokiza inson

bo‘lganligi bois ham uning yozganlarida insonlarida ruhining tub tubigacha yetib boruvchi samiymiy ohanglar ufurib turadi. Bu ohanglar xalqchil ruh bilan sug‘orilgan bo‘lib xalqning ma’naviyatini yuksalishiga xizmat qiluvchi qimmatbaho bir manbaaga aylanib ulgurdi. Vatan madhini kuylagan, yurt, xalq dardini o‘zining dardi deb bilgan va o‘z ijodida takrorlanmas satrlarda ifoda eta olgan shoir sifatida yuksak cho‘qqilarni zabt etti.

Bugun o‘zbekning chin fidoiy farzandi M.Yusuv aytganidek uning yurti xalq bo‘lmoqda.

Bu el erur azaldan shoirlarning makoni
Tomirida oqar buyuk bobolarimning qoni
Yurti uchun fidodir har lahzasi, har oni
Muhammad Yusufdir chin vatanparvar o‘g‘loni
Niyatlaring ushalmoqda shoiru davron
Bugun o‘zbek xalq bo‘lmoqda ey buyuk inson

Uni olqishlaydi kelajak har on
Barkamol avlodga bo‘lolgan qalqon
Har o‘zbekning yuragida, tilida doston
Ta’rifingda tilim ojiz fidoiy o‘g‘lon
Niyatlaring ushalmoqda shoiru davron,
Bugun o‘zbek xalq bo‘lmoqda ey buyuk inson.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008. 176 bet.
2. Karimov I.A. Karimov I.A O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. 1997-yil. 203 bet
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T., 1999, 63 bet.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas‘ulmiz. Toshkent, 2001. 178 bet.
5. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2001 yil,
6. Yusuf. M .Saylanma.Toshkent. Sharq.2005. 286 bet
7. Yusuf. M . Xalq bo‘l elim. Toshkent.O‘zbekiston.2005, 190 bet.
8. Yusuf. M. Ulug‘imsan Vatanim.Toshkent.O‘zbekiston.2010, 206 bet
9. Yusuf. M. Biz baxtli bo‘lamiz.Toshkent. Nihol. 2008, 200 bet.
10. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiyat. T., 2000 130 bet.
11. Boltayev F. Shoir zamondoshlari xotirasidan. T., 2004. 192 bet.
12. Boboyorov U., Xolsaidov F. Adabiyot. Toshkent, “Ilm ziyo”, 2000, 218 bet
13. Erta so‘ngan yulduzlar. Toshkent, “Sharq”, 2004, 254 bet.
14. Mirkomilov B. Muhammad Yusuf Vatan haqidagi she‘rlari ustida ishlashda kompyuterdan foydalanish. Til va adabiyot ta‘limi jurnali. 2007, 1-son
15. Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha, o‘zbekcha izohli lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1983. 342 bet

16. Komilov N. Komil inson millat kelajagi. T., 2001, 234 bet.
17. Mahmud S. O‘zbekning gapi qiziq. Toshkent, “Fan”, 1994. 162 bet.
18. Qo‘chqorov R. Hozirgi adabiy jarayon XX asr o‘zbek adabiyoti. 11-sinf darsligi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995. 290 bet.
19. Sharafiddinov O., Muhammad Yusuf. Saylanma. T., 2007, 258 bet.
20. O‘zME. Olti tom. 2003.
21. Matjonov S., Sariyev SH. O‘zbek adabiyoti. T., 2009, 210 bet.
22. Mirvaliyev S., Shokirova R. O‘zbek adiblari. T., 2007, 207 bet.
23. Oltin qalam // Fondimiz hayotidan. T., 2009, 13-son.
24. Oltin qalam // Muhammad Yusuf bir kuni ... T., 2007, 15-son.
25. G‘ulomov A., Ne‘matov N. Adabiyot ta’limi mazmuni. T., 2005, 150 bet.
26. Shukur Qurbon (to‘plovchi va hammuallif) M.Yusuf saboqlari. T.2012. 107 bet.
27. www.ziyonet.uz sayti
28. www.google.uz sayti